

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI
Bitiruv malakaviy ish

**Buxoro milliy matbuoti rivojlanishida Said Ahroriy va Maxmud Suboh
faoliyatlari**

Tarix ta'lism yo'nalishi
bitiruvchisi:
Jo`rayeva O.I.

Ilmiy rahbar: tarix
fanlari nomzodi
Raxmonov K.J.

Buxoro – 2018 yil

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
1-bob. Turkiston (O'zbekiston) hududida ilk matbuotchilik tarixiga umumiy tavsif	
1.1. 20 asr boshlarida Turkiston va Buxoroda ommaviy axborot vositasi – gazetalar vujudga kelishining tarixiy omillari.....	9
1.2. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mavjud bo‘lgan (1920-1924 yillar)davrning matbuot organlari.....	16
2-bob. BXSR yillarida chop etilgan gazetalar va hukumat matbuoti taraqqiyotining atoqli namoyandalari	
2.1.Said Ahroriy- Buxoro milliy matbuoti asoschilaridan biri.....	22.
2.2.Mahmud Subohning BXSR matbuoti rivojiga qo‘shgan hissasi va uning publitsistik faoliyati.....	42
Xulosa va tavsiyalar.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	50

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2016 yil 18 oktyabrdagi Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimida “Ta’lim va ma’rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” mavzusidagi nutqida: “...Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ajdodlarimizning muqaddas dini bo‘lgan islomning jamiyatimizdagи o‘rnini qayta tiklash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. 1999 yil Toshkentda Markaziy Osiyoda birinchi Islom universiteti ochildi. Mamlakatimizda 10 ta diniy ta’lim muassasasi, jumladan, Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shu ta’lim maskanlari orasida XVI asrda bunyod etilib, ilm-fanni keng yoyishga xizmat qilgan Buxorodagi Mir Arab va Toshkentdagи Ko‘kaldosh madrasalari bor”¹-degan fikrlarni bildirgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 10-11 mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayonining ijrosini ta’minlash maqsadida Mir Arab madrasasi maqomini ko‘tarish, madrasadagi o‘quv jarayonini tashkil etishda “Bahouddin Naqshband” majmuasidagi bino va inshootlar (konferens-zal, ilmiy-ma’rifiy markaz, kottej) imkoniyatlaridan unumli foydalanish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga kiritish uchun chora-tadbirlar qilinib, amalga oshirilmoqda.

2018 yil 16-17 fevral kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Buxoroga tashrifi chog‘ida esa qorako‘lchilikni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Buxoro qorako‘lchilikning asl vatani ekani, mahalliy aholi ilgaridan bunday mahsulotlarni butun dunyoga sotib, katta daromad topganini qayd etdi. Bu sohada yo‘qolib borayotgan naslchilik va tajribani qayta tiklash, cho‘pon va tikuvchi hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidladi. Qorako‘lchilik bo‘yicha institut va jamg‘arma, Buxoroda zavod tashkil etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

¹ Mirziyoev SH.M. “Таълим ва маърифат-тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл” // Каранг: Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –Б.30.

Haqiqatan ham, Buxoro ilm fan, madaniyat arxitektura sohasida jahon sivilizatsiyasiga sezilarli tasir ko'rsata olganligi, bu dargohda tibbiyot, hadis ilmining sultonlari, buyuk zotlar kamol topganligi, alqissa, uning ikkinchi Makka sifatida qadrlanishi bu zamin naqadar e'zozga faxr – iftixorga moyilligidan nishonadir.² Buxoroning qadimgi va hozirgi zamon tarixi ko'pgina tarixiy va badiiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Buxoro tarixi haqida ko'pgina manbalar yaratilgan. Buxorolik tarixnavis Abu Bakr Muhammad Ibn Ja'far al Narshaxiy tomonidan yozilgan “Buxoro tarixi” asaridir. YAqinda ilmiy jamoatchilik Narshaxiy tavalludining 1115 yilligini keng nishonladi. Uning asari asosan O'rta Osiyoda arablar istilosini natijasida islom dinining tarqilish va undan bevosita oldingi darslar hamda IX – XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar, qishloqlar xalqlarning iqtisodiy, madaniy ijtimoiy, siyosiy tarixiga old muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari Buxoroning tarixiy topografiyasiga old ma'lumotlar kiritilgan.

Tarixchilarga ma'lumki, Buxoro haqida Ruzbexonning “Mehmonnoma”, Xofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyining “Tarixi Muqimxoniy” kabi asarlarda qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Buxoro tarixi, madaniyati, ilmiy salohiyati haqida qancha gapirilsa, shuncha oz.

O'zbek davlatchiligi tarixida mavjud bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi o'zining to'rt yillik tarixi (1920-1924 yillar) davomida milliy davlatchiligidan asoslarini tiklash va rivojlantirish sohasida amaliy qadamlar qo'ydi. Yangicha tarixiy sharoitda amirlik boshqaruvi tartiblaridan farqli o'laroq iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-madaniy va xorij bilan aloqalarda o'ziga xos yo'l tutildi. SHu bilan birga BXSR hukumati madaniy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilish yo'lida harakatlar qildi.

F. Xo'jaev boshchiligidagi Nozirlar SHO'rosi hukumati islohotlar o'tkazish, jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olish uchun kuch-

² Ўша жойда.

qudratini ayamadi. Sovet Rossiyasining tazyiqiga va ta'siriga qaramasdan Respublika mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishga harakat qildi.

BXSR madaniyati va matbuoti tarixini o‘rganishga qiziqish mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ham dolzarbligicha qolmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ayni XX asrning boshlarida mazlum SHarq mamlakatlarida milliy mustaqillik uchun kurash kuchaydi. Jumladan, chor Rossiyasining mustamlakasi bo‘lgan Turkistonda ham milliy g‘oya, milliy o‘zlikni anglash sari dadil qadamlar qo‘yildi. Suronli davr o‘z halqi oldida ma’suliyat va javobgarlikni bo‘yniga olgan millat fidoiyalarini(Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Ayniy va b.) etishtirib chiqardi. O‘scha yillardagi tarixiy shaxslarning qarashlari va fikriy dunyoqarashida ixtiroflar bo‘lsada, istiqbolga mo‘ljallangan maqsad yagona va mushtarak edi. YA’ni, o‘z xalqini ozod va hurlikka olib chiqish, ortda qolgan o‘lkani jahon taraqqiyoti karvoni bilan tenglashtirish, yurtimizning so‘ngan shon-shuhratini tiklash bo‘lgandi. O‘zbekistonda mustaqillik uchun kurashlar tarixi yuzlab millat va Vatan fidoiyalarining faoliyati, ibratli hayot yo‘llari bilan uzviy ravishda bog‘liq. XX asrning birinchi choragida ozodlik va istiqlol uchun umrini garovga tikkan tarixiy shaxslardan **Said Ahroriy va Mahmud Subohlarning** ijtimoiy va publitsistik faoliyati haqida fikr yuritmoqchiman. Ularning hayoti va faoliyati butunlay murakkab tarixiy sharoitda, ziddiyatlarga to‘lib-toshgan chigal zamonda kechdi. Bunday zalvorli, suronli, alg‘ov-dalg‘ovli yillarda har qanday shaxs ham o‘zini yo‘qotib, tezda voqealar girdobiga g‘arq bo‘lishi hech gap emas edi. Ma’lumki, milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlar tarixi millatparvar va yurtparvar taniqli shaxslarning hayot yo‘li bilan uzviy bog‘liq. SHunday ekan, ushbu mavzu milliy davlatchiligidan tarixi, solnomasini boyitishda ham o‘ziga xos mavqe kasb etadi. Qolaversa, istiqlol yillarida chop etilgan ko‘p sonli tarixiy adabiyotlarda BXSR yillari ma’rifatparlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratilayotganligi yangicha ilmiy izlanishlarni talab qilmoqda. Bu esa men tomonimdan tanlangan va yozilayotgan bitiruv-malakaviy ishimning davrtalab, qiziqarli va dolzarb ekanligini isbotlaydi.

Avvalo ozodlik va istiqlol yo‘lida qo‘liga qurol ushlaganlarni (istiqlolchilarni) ularga hammaslak, hamfikr bo‘lgan, lekin 1920-1930 yillarda hokimiyat qayig‘ida turganlar kuchidan foydalanib qurbon qilishdi. Keyin esa va’da qilingan ozodlikni, mustaqillikni talab qilib chiqqanligi uchun ularning o‘zi ham sovet hukumatiga kerak bo‘lmay qolganidan so‘ng, 1937-1938 yillarda jallod boltasi ostiga etaklashdi.

YUqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, men tomonimdan tanlangan va yozilayotgan “**Buxoro milliy matbuoti rivojlanishida Said Ahroriy va Maxmud Suboh faoliyatları**” nomli bitiruv –malakaviy ish o‘zining dolzarbligiga ega. CHunki ishimda nomlari zikr etilgan xalqimizning zabardast ziylolilari haqida yagona tadqiqot darajasida, kompleks tarzda o‘rganilayotganligi ayni paytda davrtalab ham hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darjasи. Ko‘rib chiqilayotgan tadqiqotim doirasi, ayniqsa, mustaqillik yillarida kengayib, ushbu muammoni yoritishga imkon qadar xolisona yondashildi. Tarixchi olimlarning asl manbalarga tayangan holda yaratgan qator tadqiqotlari vujudga keldi. Bu borada F.Qosimov, B.Ergashev, Q.Rajabov, U.Rashidov, L.Muhammadjonova, SH.Hayitov, S.Xolboev, K.Rahmonov kabi mualliflarning ishlari³ e’tiborga loyiqdir.

³ Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев: Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. - Ташкент, 1993; Қосимов Ф. Драма революции и правда истории (формирование историографии советизации Бухары и Хорезма). - Бухара, 1996; Ўша муаллиф. Бухоро Республикаси тарихшунослиги. - Бухоро, 1997; Рашидов У. Бухоро Республикасида қаршилик ҳаракатининг биринчи босқичи (1920-1922 й.) // Бухоро тарихи масалалари (мақолалар тўплами). - Бухоро: Бухоро, 1996; Ўша муаллиф. Бухоро Халқ Республикаси (1920-1924). - Бухоро: Бухоро, 2003; Ўша муаллиф. Бухоро босқини ва совет тузумига қарши кураш. - Бухоро, 2008; Мухаммеджанова Л. Общественно-политическая ситуация в Бухаре в начале XX века и развитие демократического движения (1908-1920гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Ташкент, 1999. Ражабов К. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917-1935 йиллар). - Тошкент: Ўзбекистон, 2000; Ўша муаллиф. Развортывание освободительного движения в Бухаре // Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. - Ташкент: Шарқ. 2000. - Б. 522-553; Ўша муаллиф. Бухоро ва Хоразм Республикаларидаги қуролли муҳолифат кураши (1920-1924) // Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. - Тошкент: Шарқ, 2000; Ўша муаллиф. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. - Тошкент, 2001; Ўша муаллиф. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. - Тошкент: Маънавият, 2002; Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ

Ayniqsa, uztozlarimiz tarix fanlari doktori, professor SH.A.Hayitov va tarix fanlari nomzodi, dotsent K.J.Rahmonovlarning hammualliflikda yozgan bir qator risola va maqolalarida Buxoroda birinchi muzey va uning tashabbuskori, BXSRda teatr san'ati, BXSR matbuoti taraqqiyotining atoqli namoyandalari: Said Ahroriyning BXSR matbuoti rivojiga qo'shgan hissasi, Mahmud Suboh va BXSR matbuoti kabi masalalarga to'xtalib o'tganlar. Kichik tadqiqot ishimning mazmunini boyitishda mazkur maqola va risolalarda qayd etilgan raqam va dalillardan unumli foydalanildi.

SHuningdek, uztozimiz K.Rahmonovning nomzodlik ishida ilk bor aynan BXSR ning matbuot organlari “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari asosiy manbaviy rol o'ynaganligini ham alohida e'tirof etish lozimdir.

Hozirgi vaqtida Buxoro viloyatida chop etilayotgan “Buxoronomma” gazetasining xodimlari va jamoatchi muxbirlari tomonidan uning 20 000-soni nashr etilishi munosabati bilan bog'liq “20.000 – uchrashuv” nomli publitsistik risola⁴ chop qilingan. Ushbu risolada “Buxoro axbori” 1-soni chop etilgan 1920 yil sentyabrdan 2007 yilning dekabriga qadar chiqqan matbuot organlari va bugungi kunda “Buxoronomma” nomi ostida chiqayotgan gazetaning faoliyatida ishtirok qilgan muharrir va muxbirlar hayoti haqida maqola va tarixiy lavhalar keltirilgan. Bu risola Buxoro matbuotchilik tarixi solnomasini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xullas, mavzuning o'r ganilish darajasi keng ko'lama bo'lib, men tomonimdan amalga oshiriladigan **ishning yangiligi** esa, avvalo, madaniyat va matbuot masalasi bir-birini to'ldiruvchi jihatlar ekanligini isbotlash, qolaversa, nomlari ishimda qayd qilinishi rejalashtirilgan ajdodlarimizning ikki yo'nalishda

Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавхалари (1920-1924 йиллар). - Тошкент: Фан, 2004; Ҳайитов Ш., б. Бухоро Ҳалқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий хаёт. - Бухоро: Бухоро, 2005; Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. - Тошкент: Фан, 2008; Раҳмонов К. BXSR тарихи матбуот сахифаларда. -Т., 2012.

⁴ 20.000 - учрашув (“Бухорономма” газетаси 20.000-сони чиққанига бағишиланган публицистик рисола).- Бухоро, 2007.

ham o‘z davrida buyuk ishlarni amalga oshirganliklarini ilk bora ilmiy muomalaga kiritishdan iborat.

Men tomonimdan tanlangan “Buxoro milliy matbuoti rivojlanishida Said Ahroriy va Maxmud Suboh faoliyatları” nomli bitiruv –malakaviy ishning **maqsadi** shundaki, Buxoro matbuoti rivojlanishida yuqorida nomlari tilga olingan shaxslarning o‘rni va roli qanday bo‘lganligini ochib berishdir.

Mavzu oldiga qo‘yilgan maqsadni bajarish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldim:

- XX asr boshlarida Turkiston va Buxoroda ommaviy axborot vositasi – gazetalar vujudga kelishining tarixiy omillariga umumiyl tavsif berish;
- Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davri matbuot organlari bo‘yicha umumiyl ma’lumot berish;
- Said Ahroriyning Buxoro milliy matbuoti asoschilaridan biri bo‘lganligini isbotlash;
- Mahmud Subohning BXSR matbuoti rivojiga qo‘shgan hissasi va uning publitsistik faoliyatini bayon etish.

Bitiruv –malakaviy ishning ilmiy ahamiyati. Ishda ilmiy muomalaga kiritilgan ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalardan **Buxoro matbuoti haqidagi fikrlarni** yangicha baholashda qo‘llash mumkin. Ishimda bayon qilingan **Said Ahroriy va Maxmud Suboh faoliyatlariga oid** material va fikr-mulohazalardan O‘zbekiston tarixi fanida darslarni samarali tashkil qilish uchun foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, XX asr boshlari Buxoro matbuotning manbaviy roli masalalarini o‘rganishda, bayon qilishda, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariga mavzu tushuntirilayotganda qo‘shimcha ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishim kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami betni tashkil etadi.

1-bob.Turkiston (O‘zbekiston) hududida ilk matbuotchilik tarixiga umumiy tavsif

1.1. 20 asr boshlarida Turkiston va Buxoroda ommaviy axborot vositasi – gazetalar vujudga kelishining tarixiy omillari

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida milliy istiqlol uchun kurash, demokratik tartiblarni o‘rnatish, xalqni jaholat, ilmsizlik va xurofotdan qutqazish maqsadida jadidlar keng faoliyat olib bordilar. Bunday xayrli maqsadga erishish yo‘lida matbuot qudratli kuch ekanligini to‘g‘ri anglaganlar. Bu yo‘nalishda Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo‘jaev kabilar mahalliy matbuotni shakllantirishda muhim rol o‘ynadilar. Mintaqadagi milliy davriy nashrlar tashkil qilinishiga qrim-tatar millati vakili Ismoilbey G‘aspirali (Gaspirinskiy)ning (1851-1914) 1883-1914 yillarda chop etgan “Tarjumon” gazetasi, Turkiyada chop etilib yashirin ravishda yurtimizda tarqatilgan “Sirotul mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”), Afg‘onistonda 1900-1919 yillarda chiqib turgan “Sirojul axbor afg‘oniya” (“Afg‘on xabarlari yoritgichi”) kabi gazetalarning ta’siri katta bo‘ldi. Bundan tashqari Hindiston va Misrda chop etilgan matbuot organlari ham XX asr boshlarida Buxoroga kirib keldi. Jumladan, Hindistondan fors tilida nashr etiladigan “Habl-ul-matn”, Misrdan “CHehranoma” kabi jurnallar kelib turardi⁵. Tadqiqot va izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, Erondan “Al-jadid” gazetasi ham Buxoroga kelib turgan⁶. YUqoridagi qayd etilgan gazeta va jurnallar orqali Buxoro ziyorilari dunyo voqealari, Birinchi jahon urushi maydonlaridagi harbiy harakatlar, dunyo iqtisodiyoti, fani, texnikasi sohalarida ro‘y bergen yangiliklar haqida xabardor bo‘lib, o‘zlari yashab turgan o‘lkaning taraqqiyotdan ortda qolganligiga ishonch hosil qildilar. Buxoroda monarxiya tuzumiga qarshi

⁵ Рашидов У. ва б. Бухоро амирлигига жадидчилик харакати ва унинг шаклланиш омиллари /Из истории культурного наследия Бухары. (10 выпуск). -Бухара: Бухара, 2006. -С. 81.

⁶ Мазкур газетанинг 9-10 та нусхаси ҳозирда Бухоро давлат мөйорий-бадиий музей-кўрикхонасиининг Камолиддин Беҳзод номидаги санъат музейи кутубхонасида сақланмоқда.

muxolifatda turgan jadidlarning vakillaridan biri Sadriddin Ayniy (1878-1954) “Tarjumon” gazetasini o‘qib, “parlament” so‘zining mohiyatini anglaganligini qayd etadi⁷.

XX asr boshlarida Turkistonda chinakam mahalliy matbuotning yuzaga kelishida 1906 yil Ismoil Obidov muharrirligida “Taraqqiy” gazetasining chop etilishi muhim rol o‘ynaydi. Rossiya imperiyasi mahalliy ma’murlarining qat’iy senzurasiga qaramay, “Xurshid”(1906), “SHuhrat”(1907), “Osiyo”(1908) kabi matbuot organlari nashr qilindi⁸.

Milliy matbuotning rivojlanish jarayonining ikkinchi bosqichi 1912-1915 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda “Samarqand”, “Oyina”(1913), “Sadoi Turkiston” (1914-1915), “Sadoi Farg‘ona”(1914) kabi matbuot organlari o‘z yo‘lidagi jiddiy to‘sinq va g‘ovlarga qaramay, milliy ong, milliy til, milliy adabiyot va jurnalistikani shakllanishida muhim rol o‘ynadi⁹.

Tarixiy jarayonlar keskinlashgan 1917 yilda ijtimoiy-siyosiy faoliik va milliy birlikni ta’minlash maqsadida o‘nlab gazeta va jurnallar o‘z faoliyatini yuritdi. Ushbu yilda nashr etilgan “Najot”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Xurriyat”, “El bayrog‘i” gazetalari, “YUrt”, “CHayon” jurnallari kabilarni qayd qilish mumkin¹⁰.

Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi bo‘lgan Buxoro amirligida XX asr boshlarida taraqqiyparvarlar harakati yuzaga keldi. Bu yangi usul maktablari ochilishi jarayonida hamda yashirin maorifchilar jamiyatni hisoblangan “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyatining tuzilishida namoyon bo‘ldi. “Tarbiyai atfol”ni tuzishda Abduvohid Burhonov, Ahmadjon Hamdiy, Mukamil Burhonov, Hamidxo‘ja Mehriy, Xo‘ja Rofiy kabilar faol bo‘ldilar¹¹. Keyinchalik

⁷ Эргашев Б.Х. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. -Т.: Фан, 1990. - С.22.

⁸ Очилов Н. Даврий матбуот //Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Ж.12. -Т.: ЎзМЭ нашриёти. 2006. - Б.227.

⁹ Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Тузувчи Н.Абдуазизова. -Т.: Академия. 2000. -Б. 6.

¹⁰ Мингноров А. Вопросы национально-освободительного движения в национальной периодике (феврал 1917-середина 1918 гг.): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. -Т., 2001. -С. 20.

¹¹ Ражабов К. “Тарбияи атфол” //Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Ж. 8. -Т.: ЎзМЭ нашриёти. 2004. -Б. 271.

bu jamiyatning safi kengayib, gazeta, jurnal, maorifga oid kitoblar orqali amirlikdagi savodsizlikni tugatish uchun amaliy tadbirlarni qo'llay boshladilar.

“Bolalar tarbiyasi” jamiyati a’zolari o‘zlarining moddiy imkoniyatlaridan foydalanib, “Kitob savdosi do’stligi maorif jamiyati” va “Barakot aksionerlik jamiyati” tashkilotlari orqali Boku (Ozarbayjon), Istanbul (Turkiya) kabi shaharlarda chop etilgan diniy va dunyoviy adabiyotlarni hamda gazeta, jurnallarni xalq orasida yashirin tarqata boshladilar. Buxoro amirligi siyosiy hayotida 1885 yilda tashkil topgan Rossiya imperatorligining Buxorodagi siyosiy agentligi (1885-1917) mudhish rol o‘ynadi. Mamlakatda gazeta va boshqa turli kitoblarni chop etish uchun Rossiya hukumatining ushbu idorasidan rasmiy ruxsat olinishi kerak edi.

1912 yilda “Tarbiyai atfol” maxfiy jamiyati a’zolaridan Muhiddin Mansurov¹² va Mirza Siroj Hakim¹³ kabilarning sa’y - harakatlari tufayli amirlikda tojik tilida “Buxoroyi sharif” gazetasi¹⁴ni chiqarishga ruxsat olindi. Gazetaning rahbari Rossiya siyosiy agentligida tarjimon bo‘lib faoliyat yuritgan Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov edi. “Buxoroyi sharif”ning birinchi soni 1912 yilning 11 martida YAngi Buxoro (Kogon) shahrida chop etildi¹⁵.

“Buxoroyi sharif” gazetasi haftada dastlab 2-3 marotaba nashr qilinib, gazetaning tuzilmasi 4 sahifadan iborat edi. 1-sahifasi muharririya maqolasi, chet el va O‘rta Osiyodagi yangiliklar, voqealar, 2- va 3-sahifalarida publisistik

¹² Муҳиддин Мансуров - XX аср бошларида Бухородаги энг бадавлат савдогарлардан бири. Маорифни тарғиб киувчи ташкилотларни ҳамда “Бухоройи шариф” газетасини маблағ билан таъминлашда фаол катнашган. Мазкур газетанинг таъсисчиларидан хисобланади. 1917 йил апрелида киска муддатда бўлсада Ёш бухороликлар ташкилотини бошқарган. 1918 йил амир таъқибидан қочиб Красноводскда яширган. 1920 йилдан БХСР хукуматида савдо-саноат нозири, БХСРнинг Москвадаги ваколатхонаси раҳбари лавозимларида ишлаган. У Бутун Бухоро марказий ревкоми раиси, кейинчалик савдо-саноат нозири, Тожикистон АССР Халқ Комиссарлар Совети раиси лавозимларида ишлаган Абдулқодир Муҳиддиновнинг отаси.

¹³ Мирзо Сирож Ҳаким 1878 йилда Бухорода туғилган. Тиббиёт ходими, шоир, маориф тарғиботчisi. Узоқ муддат Европа ва Шарқ мамлакатлари бўйлаб саёҳатда бўлган. Хориждаги саёҳатлари таассуротлари асосида “Тұхфаи ахли Бухоро” (“Бухоро ахолисига совға”) номли 333 сахифали китобини ёзган. “Бухоройи шариф”, “Самарқанд” газеталари ва “Ойина” журналининг таъсисчиларидан бири хисобланади. 1914 йил вафот этган.

¹⁴ Ушбу газетанинг нашр килинган барча сонлари Бухоро давлат меморий-бадиий музей-кўриқхонасининг вилоят ўлкашунослик музейи (Арк)да ҳамда Камолиддин Беҳзод номидаги санъат музейи кутубхонасида сақланмоқда.

¹⁵ Элен Каррер Энкаус. Яширин жамиятлар даври. (1910-1914 йиллар) //Ўзбек тили ва адабиёти. 1994. №1-2. -Б. 63; Ўзбекистон тарихи солномаси /Тузувчи муаллифлар: Ражабов Қ, Ҳасанов Ф. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. -Б. 88.

maqolalar, taniqli adiblarning asarlari tarjimalaridan parchalar va unga tahririyatning nuqtai nazari, jahon adabiyoti asarlaridan namunalar chop etilgan bo‘lsa, so‘nggi sahifada asosan e’lonlar, bildirishlar, savdo do‘konlari manzillari gazetaning deyarli barcha nashrlarida bosilgan. Gazetaning tanishilgan mavjud sonlari orqali necha nusxada o‘quvchilarga tarqatilganligi bilan bog‘liq aniq qayd etilgan raqamga duch kelinmadi.

“Buxoroyi sharif” gazetasida Sadreddin Ayniy va Mirzo Siroj Hakim o‘zlarining publitsistik maqolalari bilan faol qatnashdilar. Keyingi davrda matbuotchilik tarixi bilan bog‘liq e’lon qilingan tadqiqotlarda “Buxoroyi sharif” gazetasining turli sonlarida chop etilgan maqola va badiiy ijod namunalari atroflicha tahlil va tavsif qilinmoqda. Jumladan, tadqiqotchi U.Amonov “Buxoroyi sharif”ning 53-, 59-, 94-, 96-sonlarida e’lon qilingan Munzim (Abdulvohid Burhonov) hamda Fitrat she’riy asarlaridan ayrimlarini tahlil qiladi. Munzimning “Vatan”, “Tobakay” (“Qachongacha”), “Maktab” kabi she’rlaridan parcha keltirib, ularning o‘zbekcha tarjimasini beradi. “Buxoroyi sharif”ning 1912 yil 29 iyun 94-sonida va 3 iyul 96-sonida Fitratning 40 misradan iborat “Faryod” nomli tojik tilida bitilgan she’rini o‘z maqolasida to‘liq keltirib, uning o‘zbekcha matnidan o‘quvchilarni xabardor qilganligini ham ta’kidlash mumkin¹⁶.

“Buxoroyi sharif” gazetasi orqali uning o‘quvchilari rus adibi L.Tolstoyning “Ilyos”, “Bir-biringizni seving”, “Xitoy malikasi Si Lin CHi”, “Mehnatkash Emilyan va bo‘sh baraban”, “Ikki savdogar”, “Kavkaz asiri” kabi hikoyalari bilan tanishdilar¹⁷.

“Buxoroyi sharif” gazetasiga muharrirlik qilish uchun Bokudan matbuotchilik sohasida bir qadar tajribaga ega bo‘lgan Mirzo Jalol YUsufzoda taklif qilinib, tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, gazeta 4 oy davomida muttasil uning muharrirligi ostida chop etib turilgan.

Biroq Buxoro amirligida aholining asosiy foizi o‘zbek tilida so‘zlashuvchi bo‘lganligi talabidan kelib chiqib, ilg‘or fikr namoyandalari o‘zbek tilida ham

¹⁶ Амонов У. “Бухоройи шариф” рўзномасини ўқиб... //Педагогик маҳорат. 2007. № 1. -Б. 50-51.

¹⁷ Эргашев Б. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирата. -Т.: Фан, 1990. -С. 27.

gazeta nashr qilishni yo‘lga qo‘ydilar. “Buxoroyi sharif” gazetasiga asos solingan sanadan 4 oy o‘tib, ya’ni 1912 yil 11 iyul “Turon” gazetasining 1-soni nashr qilindi¹⁸. Dastlabki 14 soniga Mirzo Jalol YUsufzoda muharrirlik qilgan. (Biroq 1-soniga Mirzo Siroj Hakim imzo chekkan). Noshiri K.Levin bo‘lib, 15-sondan noshirligi “Buxoroyi sharif” shirkati ixtiyoriga o‘tadi. Mazkur sondan boshlab gazetaning 21-sonigacha Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov muharrir bo‘lgan. Qisqa vaqt, ya’ni 22-sondan 25-songacha Husayn Ibrohimov, 26-sondan oxirgi sonigacha yana Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov mas’ul muharrirlik qilgan. “Turon”ning 1-sonida shunday rukndagi materiallar uchraydi: bosh maqola, ijtimoiy-madaniy mavzudagi maqolalar, telegraf xabarlari, mahalliy, xorijiy, dohiliy (ichki), tijoriy xabarlar: reklama va e’lonlar. Bu tuzilish gazetaning deyarli oxirgi sonigacha saqlanib qolgan. Filolog olim B.Do’stqoraev “Turon” gazetasining deyarli barcha sonlaridagi turli sohalarga doir maqolalarni tahlil qilib, mazkur matbuot organi ham Buxoro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotida muhim rol o‘ynaganligini alohida qayd etadi¹⁹.

Keyinchalik “Buxoroyi sharif” haftada 3-4 marotaba, “Turon” gazetasi esa 2-3 marotaba chiqar edi. Moliyaviy ahvolning tangligi munosabati bilan Levinning tipografiya firmasi²⁰ gazetalarni bosib chiqarishdan bosh tortganidan keyin, jadidlar “Buxoroyi sharif” shirkatini tuzib, uning a’zolaridan pul to‘play boshladilar va gazetalarning chiqishini ta’minladilar.

YUqoridagi matbuot organlari oz sonli o‘quvchilari orasida qiziqish bilan o‘qilsa-da, biroq ularni chop etishga sarflanayotgan harajatni qoplamas edi. Birinchidan, obuna bo‘lganlar oz sonli edi. Gazetalarni chop etish harajatlarini o‘z zimmasiga olgan homiylar hamda bosmaxona rahbariyati moddiy manfaatdorlik bo‘limganligi uchun gazetalar faoliyatini to‘xtatib qo‘yish fikrida bo‘ldilar. Buxoro jadidchilik harakati namoyandalari o‘zlari asos solgan dastlabki matbuot

¹⁸ Қосимов Ф. Бухорода миллий демократик харакатнинг ўзига хос хусусиятлари /Марказий Осиё XX аср бошларида: ислоҳотлар, янгиланиш ва тараққиёт учун кураш. -Т., 2001. -Б. 11.

¹⁹ Дўстқораев Б. Бухорода миллий матбуотнинг юзага келиши //Маърифат. 2008 йил 21, 25, 28 июн.

²⁰ 1894 йил Янги Бухоро (Когон)да Россия фуқароси К. Левин томонидан 1-типолитография очилди. Бу босмахонада 1912 йилгача 35 номда китоблар нашр қилинди. Жумладан, Наршахийнинг “Тарихи Бухоро”, Носириддин тўра ибн Музаффарнинг “Тухфат-ул-зоирин” асарлари ва б.

organlarini faoliyatini to‘xtashining oldini oluvchi chora-tadbirlarni ko‘rdilar. Gazetalar dunyo yuzini ko‘rishida jonbozlik ko‘rsatgan M.Mansurov ularga ketadigan sarf-harajatlarni shaxsan o‘z zimmasiga oladi. Usmon Xo‘ja (Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev; 1878-1968) ham “Tarbiyai atfol” tashkiloti faoliyatida va gazetalar nashr qilinishida xizmatini ayamagan²¹.

“Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalari amirlikdagi qoloq tartiblar hamda mustamlaka hukumatining zo‘ravonlik siyosati kabilarni tanqid ostiga olganligi, hukumat doiralarida gazetalar chop etilishiga qarshi fikrlarni kuchaytirdi. Yana bir jihat shundaki, “qadimchilar” va amirlikdagi reaksiyon doiralar gazetalarni nashr qilish ishiga imkon qadar to‘sinqilik qila boshladilar. Bu borada Buxoro amiri hamda uning amaldorlari, konservativ kuchlar va Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining fikri muvofiq keldi. YUqoridagi to‘silalar oqibatida 1913 yilning 3 yanvarida “Turon” gazetasi o‘zining 50-soniga kelib, 12 yanvarda “Buxoroyi sharif” esa 153-sonida o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Demak, “Buxoroyi sharif” 1912 yilning 11 martidan - 1913 yil 12 yanvargacha, “Turon” gazetasi 1912 yil 11 iyuldan - 1913 yil 3 yanvarigacha chop etib turilgan²².

“Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalari qisqa muddatda chop etilgan bo‘lsada, Buxoro amirligida zamonaviy matbuotchilik tarixini boshlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Gazetalar amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniyma’rifiy ahvolining XX asr boshlaridagi qiyofasini ommaga o‘tkir maqolalar orqali etkaza oldi. Jumladan, amirlikdagi qishloq xo‘jaligi va savdo-sotiqning ayanchli ahvoli, sanoat taraqqiyotidagi qoloqlik kabi salbiy jihatlarni bir qator maqolalar orqali bayon qilib berdi. Buxoro amirligida xalqning ko‘pchiligi savodsizligi, Buxoro shahrida ikki yuzga yaqin madrasalar bo‘lib, ularda asosan diniy ilmlarga e’tibor qaratilishi, mashg‘ulotlarning arab tilida olib borilishi, talabalarning ko‘pchiligi chalasavod bo‘lib chiqayotganligi gazetalarda tanqidiy ruhda qayd qilingan.

²¹ Қаранг: Ражабов К. XX asr бошларида Туркистон ёшлари. Уларнинг сиёсий фаолияти ва Шарқ мамлакатларидаги ёшлар ҳаракатлари билан узвий алоқалари //Хукуқ ва бурч. 2000. №1.-Б. 39-43.

²² Ўзбекистон тарихи солномаси /Тузувчи муаллифлар: Ражабов К, Ҳасанов Ф. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. -Б. 88-89.

Gazetalar mavjud kamchiliklarni tanqid qilibgina qolmay, ayrim maqolalarda amirlikda maorif va madaniyatni rivojlantirish yo'llariga qaratilgan aniq taklif va mulohazalar bildirilganligining guvohi bo'lish mumkin. Jumladan, nafaqat o'g'il bolalarni, balki qizlarni ham savodini chiqaradigan maktablar ochish, maktab o'qituvchilariga maosh joriy qilish orqali ta'lim tizimini yaxshilash taklifi bilan gazeta sahifalarida chiqilgan.

“Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalari Buxoro amirligida milliy demokratik g'oyalarni targ'ib qilish, savodxonlikni oshirish orqali asriy qoloqlikdan qutilish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini amirlik hayotiga tadbiq qilish kabi targ'ibotchilik ishida Buxorodagi ilg'or fikrli kishilarni birlashtirishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. Sadriddin Ayniyning e'tirof etishicha, “ushbu ikki gazeta har bir narsadan xabarsiz Buxoro aholisini tarixdan, siyosatdan, jug'rofiyadan, musulmonlarning halokat chuqurig'a tushayotganlaridan xabardor qildilar. YOshlar boshiga adabiyot, qalam va o'qimoq fikrlari tushdi. Otalar eslariga bola tarbiyasi va o'qutmoq xayollari keldi”²³. “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalari orqali Buxoroda matbuotchilik tarixi boshlanib, ushbu sohada bir qadar tajriba hosil bo'ldi va jurnalistika yo'nalishining dastlabki davriga asos solindi.

1918 yilning bahorida ro'y bergan “Kolesov voqeasi” oqibatida Buxoro jadidlari ta'qib va tazyiq ostiga olindi. Muhojirlikka yashashga majbur bo'lган islohot tarafdorlari Toshkent, Samarqand, Moskva shaharlariда o'z siyosiy faoliyatlarini davom ettirish bilan birga matbuot organlarini chop ettirdilar. YOsh buxoroliklar 1919 yilda “Qutulish”, 1920 yilda “Uchqun” gazetalari va “Tong” jurnalini chiqardilar. Ushbu gazetalar va jurnalda Fayzulla Xo'jaev, Fitrat, Po'lat Soliev (Bo'lat Soliev) kabilarning maqolalari e'lon qilindi. ”Qutulish” forscha she'rlari bilan Buxoroga otashporalar sachratdi. “Uchqun” ham o'z navbatida ba'zi bir alangalar tashladi²⁴ - deb yozadi Ayniy o'z asarlaridan birida. Biroq ushbu

²³ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар /Асарлар. 8 томлик. Т.1. -Т., 1963. -Б. 243.

²⁴ Айний С. Ўша асар. -Б.346.

matbuot nashrlari ham moddiy qiyinchiliklar, jadidlarning o‘z yashash joylarini tez-tez o‘zgartirib turishi kabi omillar tufayli uzoq faoliyat yurita olmadi.

Buxoro matbuotchilik tarixining bundan keyingi davri bevosita amirlik tuzumining ag‘darilishi va uning o‘rnida BXSR hukumatining o‘rnatalishi tarixi bilan bog‘liq.

1.2. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mavjud bo‘lgan (1920-1924 yillar) davrning matbuot organlari

1920 yil avgust oxirlari va sentyabr oyи boshlarida Buxoro amirligi ag‘darilganidan keyin uning o‘rnida tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatining reja, dastur va vazifalarini sobiq amirlik hududida yashovchi aholiga etkazish maqsadida mahalliy matbuotga asos solish, ya’ni maxsus bir gazeta chop ettirish masalasi kun tartibiga qo‘yiladi. BXSR hukumati a’zolari orasida matbaachilik maktabini bir qadar o‘tagan, muhojirlikda bo‘lsa-da, gazetalar chop etishga mutasaddilik qilgan, jurnalistik malakaga ega bo‘lgan vakillar bor edi. YAngi hukumat siyosatini keng jamoatchilikka targ‘ib qilishdek vazifani bajarishda matbuotning roli beqiyos ekanligini anglagan mas’ul lavozimlardagi rahbarlar gazeta nashr etish ishiga muhim masalalardan biri sifatida qaradilar. SHuning uchun 1920 yil 9 sentyabrdan, ya’ni amirlik tuzumi ag‘darilganidan roppa-rosa bir hafta o‘tib, BXSRning markazi Eski Buxoro (hozirgi Buxoro) shahrida o‘zbek adabiy tilida, isloh kilingan arab imlosida “Buxoro axbori” nomi bilan gazeta chop etildi²⁵. “Buxoro axbori”ning 1920 yil 9 sentyabrdan bosmaxonadan chiqqan 1-sonida “Maqsad va maslak” nomli muharririyat tomonidan bosilgan yirik maqolada: “Gazetaning maqsadi buxoroliklarga inqilobimizning va uning amallarini, sabablarini, uning qoida va fazilatlarini bir suratda tushuntirmakdan iboratdur... SHu barobar kelajak ishlarining saodat va iqboli yo‘linda rag‘bat etib, Buxoroning obodlig‘ig‘a xizmat etmak” kabi fikrlar mavjud. Gazeta ilk sonidagi ushbu maqolada bundan keyin Buxoro hayotida ro‘y beradigan siyosiy, iqtisodiy,

²⁵ Газета нусхалари хозирда Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архивида ва Абу Али Ибн Сино номидаги Бухоро вилоят марказий кутубхонасида сакланмоқда.

ijtimoiy, ilmiy-adabiy, ma'rifiy-madaniy o'zgarishlarga e'tibor qaratilishi ham alohida ta'kidlanadi. To'rt sahifada chop etilgan "Buxoro axbori" gazetasining dastlabki soni bilan batafsil tanishilganda, uning 1-sahifasi yuqori qismida "Buxorolik vatandoshlar! Ozod Vataningiz muborak bo'lsun!" shiori qayd qilingan. Keyingi barcha sonlariga sovet davri matbuoti uchun an'ana bo'lib qolgan "Butun dunyo yo'qsullari birlashingiz!" shiori asos qilib olingan.

"Buxoro axbori" gazetasi katta formatda 2 sahifada, o'rta formatda 4 sahifada, yupqa va sifati yuqori darajada bo'lмаган сарг'иш rangli bosmaxona qog'ozida chop etilgan. Gazeta birinchi sonining 1-sahifasida hukumat rahbarlarining salmoqli maqolalari va turli-tuman ma'lumotlarga ega bo'lgan muharririyat tomonidan tayyorlangan maqolalar bosilgan. YUqoridagi fikr dalili sifatida aytish lozimki, gazetaning ilk sonida BXSR Xalq Nozirlar SHo'rosi raisi Fayzulla Xo'jaevning "Kuntug'di"" nomli yirik maqolasi e'lon qilingan. Gazetaning 1-sahifasi teng yarmini egallagan mazkur maqolada Buxoroda 1920 yil sentyabr oyi boshlarida yuz bergen keskin siyosiy jarayonlar o'z davri talablaridan kelib chiqqan holda bayon qilingan²⁶.

"Buxoro axbori" gazetasining 2-sahifasida muharririyat a'zolari va ayrim mutasaddi hukumat rahbarlarining ichki muammolarga oid yirik maqolalari hamda BXSR xo'jalik hayotining turli tarmoqlariga tegishli xabarlar bosilgan.

Gazetaning 3-sahifasi BXSR atrofidagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti, SHarq va G'arbning turli davlatlarida kechayotgan voqealar tafsilotiga yo'naltirilgan. YUqoridagi turli-tuman chet el matbuot organlaridan ko'chirilgan maqolalar "Bizdan tashqarida", "CHet ellarda", "SHarqda", "SHo'rolar ittifoqida", "Turkistonda" kabi ruknlar ostida bosilgan. Keyingi sonlarda bu ruknlar doirasi yanada kengayib borgan.

"Buxoro axbori"ning to'rtinchchi, ya'ni so'nggi sahifasi BXSR hukumatining buyruq va qarorlari, hukumat muassasalari va nozirliklarning bildirishnomalaridan iborat bo'lib, ular "Hukumat tadbirlari" va "Rasmiy qism" ruknlari ostida berilgan.

²⁶ Раҳмонов К. "Бухоро ахбори" газетаси - Бухоро Республикаси матбуот органи //Жамият ва бошқарув. -Т., 2004. № 2. -Б.44-46.

“Buxoro axbori” gazetasi Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (revkom), keyinchalik (1921 yildan) BXSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasi (MIQ) organi sifatida chop etilgan.

“Buxoro axbori” gazetasi 1920 yil 9 sentyabrda chop etilgan 1-sonidan boshlab 2 yil davomida, ya’ni 1922 yil 21 sentyabrga qadar haftada bir marta 1000-1500 nusxada bosmaxonadan chiqarilib turilgan.

“Buxoro axbori” gazetasining 1-soni 4-sahifasi oxiridagi ma’lumotdan aniq bo‘ladiki, gazetaning dastlabki muharriri ma’rifatparvar, matbaachilik sohasida muayyan tajriba orttirgan Mahmud Said Ahroriy hisoblanadi.

Biz mazkur shaxs to‘g‘risida keyingi boblarimizda to‘liq ma’lumotlar beramiz.

Hukumat muassasalarida siyosiy rahbarlarga va diplomatik xodimlarga ehtiyoj dastlabki yillarda kuchliligi tufayli “Buxoro axbori”ning birinchi muharriri S.Ahroriy 1921 yil iyunda Ozarbayjon Respublikasiga BXSRning muxtor vakili qilib yuborildi.

Said Ahroriydek tajribali jurnalistning mas’ul vazifaga o‘tkazilishi “Buxoro axbori” gazetasini istiqbolda ushbu shaxs singari salohiyatli va gazeta saviyasini avvalgi darajada saqlab qolib, yanada oshirishga yo‘naltira oladigan muharririga zarurat tug‘ildi. Navbatdagi bosh muharrirlik mas’uliyati mashhur adib va shoir Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li CHo‘lpon²⁷ zimmasiga yuklandi. Gazetaning 41-sonidan 67-soniga qadar (salkam olti oy, 1921 yil 30 iyun - 1922 yil 25 yanvar) unga CHo‘lpon muharrirlik qildi. U shaxsan ustozi Fitratning taklifi bilan Buxoroga kelgan. Ikkinchidan esa, Buxorodagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar yozuvchi va publisist CHo‘lponni juda qiziqtirar edi²⁸. Xullas, CHo‘lponning tabiatan yangilikka intiluvchanligi, o‘zgarishlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga harakat qilishi, maslakdoshlari bilan birga bo‘lish kabi maksadlari uni Buxoroga kelib, o‘z ijodiy faoliyatini davom ettirishiga sabab bo‘lgan. 1921 yilning ikkinchi yarmida gazeta haqiqiy xalq minbariga aylandi. Bu davrda

²⁷ Абдулхамид Сулаймон ўғли Чўлпон (1898, Андижон – 1938, Тошкент) - шоир, ёзувчи, драматург, таржимон ва жамоат арбоби.

²⁸ Алиев С. Чўлпон наздида Бухоро //Бухоро хақиқати. 1997 йил 20 декабр.

“Buxoro axbori”da “Maorif ishlarimiz”, “Iqtisodiy ishlarimiz”, “Ochiq xatlar”, “Bizdan tashqarida”, “Qora taxtaga”, “Mubohasalar”, “Siyosiy aloqalar”, “Firqa turmushidan”, “Kasabachilik harakati” kabi yangidan-yangi ruknlarga asos solindi. Ayniqsa, “Ochiq xatlar” va “Mubohasalar” rukni ostida chop etilgan xabar va maqolalar BXSRda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlarni tanqid tig‘i ostida yoritib, gazeta o‘quvchilarini babs va munozaraga chorladi.

Abdulhamid CHo‘lponning muharrirlik davrida ijodkorning kasbiy mahorati tufayli adabiy-badiiy muhit yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. “Adabiyot”, “Feleton”, “Kichik hangoma” kabi bir qator ruknlar tashkil etildi. Mazkur ruknlarning gazetxonlarga manzur bo‘lishida CHo‘lpon ijodidan namunalar ham berib borilishi muhim rol o‘ynadi. Jumladan, shoirning “Adabiyot” rukni ostida gazetaning bir qator sonlarida “Ag‘darilish”, “Xalq”, “Tarixdan”, “So‘z”, “YUrt yo‘li”, “Og‘rig‘onda”, “O‘liqlarg‘a qarshi” she’rlari e’lon qilindi. CHo‘lponning “Matbuot-kuchlik bir davlatdur”, “Hukumat nashri” kabi maqolalari bevosita matbaachilik faoliyatini va davriy matbuotning ta’sir kuchini oshirish maqsadlariga qaratilgan. Gazeta sahifalarida muharrirning “Hukumat qurultoyi”, “Adabiyot kechasi”, “Teatr-tomosha”, “Ergashish”, “Tizgin talash” kabi maqolalari esa o‘zining ijtimoiy xarakteri bilan ahamiyatlidir. Gazetada chop etilgan she’r va maqolalari uning “CHo‘lpon”, “Qalandar” kabi taxalluslari ostida bosilgan. Ayrim hollarda esa “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li” ismi - sharifi yozib qo‘yilganligining guvohi bo‘lindi.

CHo‘lponning “Buxoro axbori”da e’lon qilingan ijod namunalarini 3 guruhga bo‘lish mumkin. SHe’riy ijod namunalari, davr ruhini tanqidiy aks ettirgan publitsistik maqolalar hamda bevosita matbuotchilik tarixi muammolariga bag‘ishlangan asarlardir. Uning “Matbuot - kuchlik bir davlatdur” maqolasida aynan matbuot organlarining jamiyat taraqqiyotidagi roli haqida fikr yuritiladi. “Matbuot xalqning tilidur... Gazeta hukumatning tilidur. SHuning uchun butun hukumat muassasalarining qilgan ishlarini va qilib turganlarini xabar berib, xalqqa gapirib turishi kerakdur”,- deb yoziladi.

Gazeta hayotning dolzarb muammolarini tabiiy ravishda bayon qilsa, foydadan holi bo‘lmasligiga bu kabi maqolalarda e’tibor qaratilgan. “Buxoro axbori” xalq ommasi tushunadigan voqeа va xabarlarni e’lon qilishi kerakligi, feleton janrini, badiiy ruknni kuchaytirilishi maqolalarda alohida ta’kidlanadi. CHo‘lpon gazetaning qudrati va ahamiyatini: “dunyoda besh kuchlik davlat bo‘lsa oltinchisi, oltita bo‘lsa ettinchisi matbuotdir”²⁹, - deb yozadi.

Gazeta sahifalarida bosh muharrir Buxorodagi barcha ziyolilarni, qalamkashlarni, muxbirlarni munozaralarga chorlab, “Buxoro axbori” sahifalari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday erkin fikrlar uchun ochiqligini qayta-qayta ta’kidlaydi. “O‘rtoq Qilichzoda (BXSR yoshlari ittifoqining raisi)ning javobi”, “So‘nggi so‘zim (o‘rtoq Qilichzodaga javob)” -kabi maqolalarning e’lon qilinishi diqqatga sazavordir.

SHuni qayd etish kerakki, ma’lum sabablarga ko‘ra, “Buxoro axbori”ning 68-soni (1922 yil 4 fevral)dan bosh muharrir o‘zgargan bo‘lsada, uning sobiq muharriri gazeta bilan aloqani uzmaydi. Keyingi sonlarda CHo‘lpon ham Said Ahroriy singari gazetada maqolanavislikni davom ettirib, respublika ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritishga qaratilgan uning 3 ta yirik maqolasi chop etilganligi aniqlandi.

1922 yil 4 fevraldan boshlab Ziyo Usmoniy “Buxoro axbori”da bosh muharrirlik vazifasini bajara boshlagan. U “Buxoro axbori”ning 1922 yil 4 fevraldan 1922 yil 27 mayga qadar chiqib turgan 68-87-sonlariga muharrirlik qilgan. CHop etilgan gazetalar, ulardagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bu davrda “Buxoro axbori”ning umumiyligi 1000 nusxada bo‘lib, ayrim sonlari 1500 nusxada ham bosilgan. Lekin gazetaning har oyda chop etilishi jarayoni bir tekis bo‘lмаган. Ayrim oylarda gazeta 4 marta, uning muharrirligi davrining so‘nggi 2 oyida (aprel, may) 3 martadan chop etilgan. Ziyo Usmoniy muharrirlik qilgan qisqa davrda (salkam 4 oy) gazeta sonlarining oylik nashrlari 5-6 martadan 3-4 martagacha tushib qolishi BXSR hukumatining moliyaviy ahvolidagi tanglik bilan ham bog‘liq. Ushbu xolatni muharrirning gazeta sahifalarida bevosa o‘zi

²⁹ Ўша жойда.

tomonidan chop etilgan bir qator maqolalari mazmunidan bilish mumkin. Ziyo Usmoniy “Matbuotimiz nima uchun yuksalmaydur” hamda keyinchalik chop ettirgan “Matbuot haqinda yana bir-ikki so‘z” kabi salmoqli maqolalarida BXSR matbuotining ma’suliyatini barmoq bilan sanarli 2-3 nafar muxbir tortayotganligi, gazeta ishida ishtirok qiladiganlar oz sonliligi haqida kuyunchaklik bilan yozadi. Hatto, “Adabiyot bilan yashagan va shu bilan o‘sgan va shu yo‘lda ko‘plab xizmatlar ko‘rsatgan Fitrat ham gazetaga maqolalar yozmaganligi”³⁰ ni tanqid qiladi. Ziyo Usmoniy “Buxoro axbori”ni xalq sevib o‘qiydigan, e’tirof etadigan gazeta bo‘lishi zarurligini o‘z maqolalarida uqtirib o‘tadi.

Ziyo Usmoniy “Buxoro axbori”da uzoq muddat muharrirlik qilmaganligining sababi mazkur gazetaning 87-sonida (1922 yil 17 iyun) “Iste’fo” sarlavhasi bilan bosilgan shaxsiy arizasida ko‘rsatilgan. Bosh muharrir bir yarim yil (1921-1922) davomida nashriyot va gazetada tinimsiz ishlaganligi va qattiq kasalga chalinganligi, bu esa muharrirlik ma’suliyatini bajarishga imkon bermayotganligini xabar qiladi. “Buxoro axbori” gazetasida Ziyo Usmoniydan so‘ng gazetaning muxbirlaridan biri Ostonqul Abdulqiyomov³¹ tahririyat boshqaruvini o‘z qo‘liga oldi. U bosh muharrirlik qilgan salkam 4 oylik (1922 yil iyun-sentyabr) muddatda “Buxoro axbori”ning nashr nusxasi (1500 ta) o‘z holicha saqlanib, bir oy davomida chop etilishi sonlari esa 2 barobarga qisqarib ketadi, ya’ni oyida gazeta atigi 2-3 martadan chop etilganligi aniqlandi. Ostonqul Abdulqiyomov “Buxoro axbori” gazetasida 3-4 maqolasi bilan ishtirok qilgan, xolos. Ostonqul Abdulqiyomov gazetaning 99-soniga (1922 yil 14 sentyabrga) qadar bosh muharrirlik vazifasida ishlagan. Tarixiy jarayonlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1922 yilda BXSRda ichki harbiy to‘qnashuvlar avj olgan, asosiy e’tibor harbiy ehtiyojlarga qaratilgan. Bu holat matbaachilik ishini moddiy jihatdan yo‘lga qo‘yishda salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ziyo Usmoniy va Ostonqul Abdulqiyomov gazetada muharrirlik qilgan davrda matbuotda pasayish jarayoni kuzatildi. Matbuotning jamiyatdagi rolini

³⁰ Ўша жойда.

³¹ Остонкул Абдулқиёмов шахси билан боғлиқ маълумотларни хозирча аниклай олмадик.

hamda “Buxoro axbori” gazetasining Said Ahroriy va CHo‘lpon muharrirligi davridagi obro‘-e’tiborini ko‘tarish maqsadida bo‘lsa kerak, bevosita hukumat a’zosi, BXSRda birinchi maorif noziri bo‘lgan Qori Yo‘ldosh Po‘latov³²ga bosh muharrirlik qilish ma’suliyati yuklatildi. YAngi bosh muharrir hukumatdagi rahbarlik lavozimi bilan birga bu vazifani davom ettirgan. U bir paytning o‘zida BXSR maorif noziri lavozimida ishlab turgan edi. Qori Yo‘ldoshning gazetadagi muharrirlik faoliyati roppa-rosa bir yil davom etib, “Buxoro axbori”ning 100-204-sonlari uning rahbarligida chop etilgan davrda (1922 yilning 21 sentyabridan 1923 yil 21 sentyabrigacha) matbuot 1 oyda 7-8 marta chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. Gazeta tiraji ham 2000-2500 nusxaga etkazilib, barcha viloyatlarga gazetani bir tekisda tarqatilishi qat’iy nazorat ostiga olindi.

Qori Yo‘ldosh Po‘latov hukumat rahbarlaridan biri sifatida 1922-1923 yil qish faslida RSFSR shaharlaridan Moskva va Petrogradga sayohat qilib, safari davomida maorif tizimini takomillashtirishga xizmat qiladigan vazifalar bilan birga matbaachilik va nashriyotchilikning moddiy asoslari hamda zamonaviyligini ta’minlaydigan asbob-uskunalar keltirishga erishgan. Bu haqda muharrirning “Buxoro axbori” gazetasining 5 ta sonida ketma-ket chop etilgan “Yo‘l xotiralari”³³ deb nomlangan maqolasidan xabardor bo‘lish mumkin. Gazetani chop etilishiga mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan Rossiya safaridan sintografiya³⁴ olib kelishga muvaffaq bo‘lindi. Bu tadbir “Buxoro axbori” gazetasini 1923 yil bahoridan boshlab fotolavhalar bilan chop etilishini ta’minladi³⁵. Sintografiyanı o‘rnatish va ishga tushirish, doimiy ishlab turishini ta’minalash maqsadida tatar matbaachi va noshir ziyyolilardan foydalanilganligi ham muhimdir³⁶. Q.Y.Po‘latov gazeta faoliyatini boshqargan davrda musulmon shrifti, gazeta poliografiya bazasi,

³² Кори Йўлдош Пўлатов (1890, Бухоро амирлигидаги Карки шахри - 1965, Тошкент)- давлат ва жамоат арбоби. Бухорода жадидчилик ҳаракати намояндаси. БХСР хукуматида бир қатор масъул мансаб ва лавозимларда ишлаган. 1937 йилдан бошлаб бир неча бор қамоққа олинди. 1957 йил оқланган. Қамоқдан қайтгач, умрининг охиригача факирона ҳаёт кечирди.

³³ Ҳайитов Ш Мухаррирнинг «Йўл хотиралари». «Бухоронома», 2003 йил, 2 август.

³⁴ Синтография - матбуот учун зарур бўлган аксилхона, яъни расмхона асбоблари.

³⁵ Иброҳимов И. Маърифат зиёси //”20.000-учрашув” .“Бухоронома” газетаси 20.000-сони чикқанига бағишиланган публицистик рисола. -Бухоро, 2007. -Б. 21.

³⁶ Ҳайитов Ш. Татар зиёлилари Бухорода //Жамият ва бошқарув. 2007. №3. -Б. 125-126.

muxbir xodimlar bilan ta'minlanishi masalalarida ham ijobiy siljishlar kuzatiladi. Ayniqsa, Tatariston ASSRdan katta miqdorda musulmon shriftining keltirilishi muhimdir.

1923 yilning yozida Germaniyadan musulmoncha harf terish mashinasining Buxoroga keltirilishi noshirchilik sohasida burilish yasadi. YUqoridagi omillar “Buxoro axbori” gazetasini bundan buyon 4 sahifada emas, balki 8 sahifada chop etish imkonini berdi. Gazeta nafaqat hajman kengayibgina qolmay, balki mazmunan boyidi, o‘quvchiga ko‘proq manzur bo‘ldi, undagi xabar va maqolalar dolzarbligi oshdi. Ayniqsa, tanqidiy, real hayotni tasviflovchi materiallarning gazeta sahifalarida chop etilishi, respublikaning turli viloyatlarida gazetxonlar soni ko‘payishiga olib keldi. Eng faol maqolanavislardan biri Qori Yo‘ldosh Po‘latovning o‘zi bo‘lib, gazeta sonlarida ko‘plab maqolalar e’lon qilgan³⁷. Qori Yo‘ldosh Po‘latovning “Dohiliy qarzga yozilingiz”, “Muhim vazifamiz”, “Bugungi vazifamiz”, “Poraxo‘rlik bilan kurash”, “Mustaqil bir mamlakat qanday bo‘lur?” “Soliq haqinda bir-ikki so‘z” kabi maqolalari BXSRning ijtimoiy-iktisodiy ahvolini o‘rganishga yordam beradi.

Qori Yo‘ldosh Po‘latovning “Soliq haqinda bir-ikki so‘z” maqolasi ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, BXSR hukumati aholidan ushr, zakot singari soliqlar oladi. Bu soliqlar miqdori uncha katta bo‘lmasa-da, 2 yil soliqsiz yashab kelgan xalqqa qattiq botishi tabiiy edi. Bunday vaziyatda aholiga matbuot orqali soliq solishdan maqsad nima ekanligini oddiy va jo‘n qilib tushuntirish kerak edi. Bu haqda Qori Yo‘ldosh Po‘latov: “Hozirgi hukumat soliqni o‘zining safosi uchun yig‘masdan, balki xalqni o‘qitmoq, xarob bo‘lgan shahar va qishloqlarni ta’mir etmoq, turli kasalliklar bilan kurashmoq, xalq xo‘jaligini isloh qilmoq, yurtni iqtisodiy turmushini ko‘tarmoq, xalqni tinchligini muhofaza etmoq kabi oliy maqsadlar uchun yig‘naydur”, - deb yozadi. Ushbu fikrlar orqali insonparvar hukumatning soliq siyosati qanday bo‘lishi kerakligi bilan bog‘liq mohiyat ochib berilgan. O‘z yurtini sevgan va taraqqiy qilishini istagan har bir inson soliqni yurt va hukumat haqi deb tushunishi maqola mazmunida ifodalangan.

³⁷ Ҳайитов Ш. Эслатилган макола.

“Buxoro axbori” gazetasining moddiy va texnikaviy bazasini bir qadar mustahkamlashga erishgan hamda gazetani haftada muntazam 2 marta chiqib turishini ta’minlashga katta hissa qo’shgan bosh muharrir Q.Y.Po’latov respublika hukumati idoralaridagi mas’ul vazifalarga (BXSR mehnat sho’rosi raisi, muhofaza noziri) jalb qilinganligi sababli gazeta tashkil topganidan buyon ancha vaqt faol muxbirlardan biri bo’lgan Qosim Sorokin³⁸ bosh muharrirlik lavozimiga tayinlanadi. U “Buxoro axbori” gazetasiga 204-sondan, ya’ni 1923 yil 21 sentyabridan muharrirlik qilishni boshlagan. Sorokinning bosh muharrirlik davri “Buxoro axbori”ning 204-213 sonlari (1923 yil 16 oktyabrga qadar) hamda yangi “Ozod Buxoro” gazetasi chop etila boshlangan uning 1-sonidan 87-soniga qadar 8 oydan ortiq (1923 yil 21 oktyabr-1924 yil 5 may) bo’lgan muddatni o‘z ichiga oladi. Demak, uning muharrirligi ostida “Buxoro axbori” gazetasining bor-yo‘g‘i 9 ta soni chop etilib, gazeta shakli va mazmunida deyarli o‘zgarishlar ro‘y bermadi.

Xullas, “Buxoro axbori” gazetasining 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yilning 16 oktyabrgacha 214 soni chop etilgan. Gazeta dastlab 4 sahifada 1000-1500 nusxada chop etilgan bo‘lsa, 1922 yil kuzidan boshlab, u 7-8 sahifada haftada 2-3 marta, oyida 8-10 marta, 2000-2500 nusxada nashr etildi. “Buxoro axbori” gazetasi oddiy holatda chop etilishidan tortib, fotolavhalar va zamonaviy texnik vositalar bilan chiqarilishiga qadar bo‘lgan bosqichni bosib o’tdi.

“Buxoro axbori” gazetasi BXSRning ichki va tashqi siyosati, o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlari va muammolari masalalarini o‘nlab ruknlar ostida imkon qadar xolisona hamda tanqidiy ruh bilan yoritishga erishdi.

³⁸ Қосим Сорокин - Сорокин Қосим Иброҳимович (1899. 17. 12, Симбирск губеряси, хозирги Уляновск обл. - 1939) - журналист, ўзбек совет матбуотининг намояндаларидан. 1919 йили Тошкентга ўқишига келган. Шу даврдан журналистлик ва муҳаррирлик фаолияти бошланган. “Қосим”, “Ўрмонлик” таҳаллуслари билан ижод этган. У 1919 йил “Янги Шарқ”, 1920 йили “Мехнат байроғи” газетасига муҳаррирлик қилган. 1921-1923 йилларда “Қизил байроқ”, “Туркистон” газеталари, “Коммунист”, “Коммунистлар йўлдоши”, “Инқи lob” журнallарида масъул котиб ва муҳаррир. 1924-1926 йилларда РКП(б) МК матбуот бўлими инструктори. 1927-1928 йилларда “Қизил Ўзбекистон” газетаси масъул муҳаррири. 1929-30 йилларда Ўзбекистон КП МК матбуот сектори мудири. 1931-33 йилларда Москвада марксизм-ленинизм курсида ўқиди. 1933 йилдан Андижон обlastida МТС сиёсий бўлими бошлиғи. 1936 йилдан ЎзССР Маориф халқ комиссари бўлиб ишлаган. 1939 йил вафот этган.

“Buxoro axbori” gazetasi o‘rniga 1923 yil oktyabr oyи o‘rtalaridan boshlab “Ozod Buxoro” gazetasi chop etildi. YAngi gazeta haqidagi rasmiy xabar “Buxoro axbori”ning 211-soni (1923 yil 7 oktyabr)dayoq “O‘quvchilar diqqatiga!” nomli e’lon ostida ma’lum qilindi.

“Ozod Buxoro” gazetasida ham yuqorida qayd qilinganidek, Qosim Sorokin bosh muharrirlik faoliyatini davom ettirib, gazetaning poliografiya bazasini kengaytirish, iqtisod sho‘rosining yordamida matbuot ishlariga mablag‘ ajratib, musulmon shrifti, nashr ishlari uchun asbob-uskuna va turli ashyolar olishga erishgan. Gazeta biroz o‘zining moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida xo‘jalik hisobiga o‘tib, mas’ul idora va korxonalar ma’lumotlari (e’lonlar, bildirishlar, buyruqlar, farmonlar va hokazo) kabilarni gazeta sahifalarida to‘lov evaziga chop etib borgan. Bu haqda quyidagi bildirishnomha gazetaning bir necha sonlarida ham qayta-qayta berib borilgan: “Ozod Buxoro gazetasi qisman bo‘lsa ham xo‘jalik asosiga ko‘chdi. Bundan keyin hech bir e’lon va buyruqlar gazetaga bepul bosilmas”³⁹.

Biroq “Ozod Buxoro”gazetasi rolini oshirish, uni muntazam chiqib turishi uchun muxbirlar va xodimlar etishmasligini bartaraf etish muammosi hal qilinmagan. “Ozod Buxoro”da chop etilgan ma’lumotlar bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, gazeta chiqarish uchun 3-4 muxbir va muharrir ozlik qilishi, muxbirlar qishloq va shahar hayoti bilan bog‘liq voqealarni to‘la yorita olmayotganligi, davriy matbuot “Buxoroning oynasi” bo‘lmayotganligi bir qator maqola va xabarlarda yozilgan. “Ozod Buxoro” gazetasini malakali mutaxassis muxbirlar bilan ta’minalash, uning viloyat, tuman va kentlardagi doimiy muxbir va jamoatchi muxbirlari tarkibini kengaytirish borasida ayrim chora-tadbirlar ko‘rilgan. Tadqiqot natijasida “Ozod Buxoro”ning bir qator sonlari orqali ushbu matbuot nashrining viloyatlardagi muxbirlari tarkibini aniqlashga erishildi.

³⁹ Рахмонов К., Нуруллаева Ф. Бухоро тарихини ўқитишда “Озод Бухоро” газетаси материалларидан фойдаланиш //“Олий ўқув юртларида самарадорликни ошириш муаммолари” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2-китоб). Бухоро. 2006. 22-236.

Jumladan, Xabibullaev, Nuriddinov (Karmana viloyati muxbirlari), Islom SHarif (SHarqiy Buxoro hududlari bo'yicha muxbir), "Qo'y boqar", G'ani (Karki viloyati muxbirlari), SHeroz (Lenin-turkman (CHorjo'y) viloyati muxbiri), "Ajnabiy" (SHahrisabz viloyati muxbiri), Ismatiy (G'uzor viloyati muxbiri), A.Safarov (Boysun viloyati muxbiri), Ergash (Behbudiy (Qarshi) viloyati muxbiri) kabilarni qayd qilish mumkin. Muxbirlar tarkibi bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, ayrim gazeta xodimlarining taxalluslari berilib, asl ism-shariflarini aniqlash imkonи bo'lindi. CHunki "Ozod Buxoro"da e'lon qilingan turli viloyatlardan yuborilgan maqola va xabarlar ostida ushbu taxalluslar qayta-qayta beriladi.

1924 yilning boshlaridan "Ozod Buxoro" gazetasida kommunistik mafkura ta'siri kuchayganligi ko'rindi. Gazetadagi xabar va maqolalar ko'proq "Qizil choyxona", "Qizil burchak", "Firqa turmushindan", "Firqaga a'zolik shartlari", "Qora taxtaga" (BKP safidan chiqarilganlar haqida -) kabi ruknlar ostida e'lon qilingan.

"Ozod Buxoro" gazetasi mafkuralashib borayotgan hamda sovetcha tartiblar va qoidalarni targ'ib qilish minbariga aylangan bir davrda bolshevik targ'ibotchilarni uning ishiga jalb qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Buxoro Kommunistik partiyasi (BKP)ning tashviqot va targ'ibot ishlaridagi ilg'or kadrlaridan biri Abbos Aliev 1924 yil aprel oyidan boshlab bu mas'ul vazifaga loyiq deb topilgan. Bu haqda "Ozod Buxoro"ning "Buxoro xabarları" ruknida: "Markaziy firqo'm tarafindan gazetamizg'a Abbos Aliev, Ahmad Ahmadov va Abu Zarif o'rtoqlardan iborat 3 kishilik hay'at tahririya tayin etildi. Bulardan Aliev - siyosiy mas'ul yo'lboshchi (bosh muharrir), Ahmadov - a'zo, Abu Zarif - texnik muharrir vazifasini o'tajaklar", - deb yozilgandi.

"Ozod Buxoro" gazetasida 1923 yilning oxiri va 1924 yil boshlarida kommunistik mafkura ta'sirida yangi ruknlar ochildi. SHunday ruknlardan "Bosmachilikning so'nggi kunlari", "Bosmachilikka qarshi kurash", "Bosmachilarga qarshi tadbirlar", "Ikki haftalik" (maorif ikki haftaligi, ushr ikki haftaligi va hokazo), "Xotin-qizlar o'rtasida", "Kommunist yoshlar hayotidan"

kabilarni sanab o‘tish mumkin. Ayniqsa, “bosmachilik harakati”⁴⁰ bilan bog‘liq maqola va xabarlarning ko‘p mikdorda hamda deyarli gazetaning har bir sonida berilishi yuqoridagi fikrning dalilidir. Kommunistik mafkura ta’sirining gazeta mazmuniga chuqur kirib borganligini uning sahifalarida “bosmachilik harakati”ga qarshi mitinglarda so‘zlangan ma’ruzalarning to‘liq chop etilishi, 1924 yilning oktyabr oyidagi sonlaridan boshlab gazetaning 9-10-sahifalari rus tilida (krill imlosida) “Postanovlenie”, “Prikaz”, “Polojenie”, “Dekret” kabi hujjatlarning e’lon qilinishi, milliy-hududiy chegaralanish masalalariga tegishli hukumat rahbarlarining ma’ruzalari to‘liq matnining keltirilishi bilan izohlash mumkin. Hatto 1924 yil 2 sentyabrda chop etilgan “Ozod Buxoro”ning 135-soni maxsus nashr sifatida chiqqan bo‘lib, unda “Buxoro inqilobi”ning jahonshumul ahamiyati bir tomonlama orttirilib ko‘rsatilgan. Ushbu yilning 7 noyabrida oktyabr inqilobi (to‘ntarishi) kuniga bag‘ishlab chiqarilgan maxsus son ham gazeta kommunistik mafkuraning targ‘ibotchisiga aylanib bo‘lganligidan dalolat beradi.

“Ozod Buxoro” gazetasining mafkuralashuv jarayoni gazetada o‘qimishli va jiddiy maqolalar mutlaqo bosilmadi, degan ma’noni anglatmaydi. “Ozod Buxoro” nomi bilan chiqa boshlagan 1-sonidan boshlab deyarli barcha nashrlarda “Fan va texnika” rukni ostida ilm va madaniyat yangiliklarini targ‘ib qiluvchi dolzarb maqolalar, xabarlar berib borildi

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari nomi bilan chop etilgan ushbu alohida nashrlarning birgalikdagi 300 - maxsus soni (1924 yil may)da 1920-1924 yillardagi mahalliy matbuot xodimlari, ularning fotosuratlari va tarjimai

⁴⁰ “Босмачилик ҳаракати” - Туркистон минтақасида совет тузумига қарши қуролли ҳаракат назарда тутилмоқда. Бу хақда тарихчи олим Қ. Ражабовнинг тадқиқотларида батафсил сўз юритилади. Қаранг: Ражабов Қ. Мустакил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917-1935 йиллар). -Т.: Ўзбекистон, 2000; Шу муаллиф. Развортывание освободительного движение в Бухаре //Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. -Т.: Шарқ. 2000. -С. 522-553; Ўша муаллиф. Бухоро ва Хоразм Республикаларидаги қуролли мухолифат кураши (1920-1924) //Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Т., 2000; Ўша муаллиф. Бухоро ва Хоразм Xalq Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли //Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. -Т., 2001; Ўша муаллиф. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. -Т.: Маънавият, 2002; Ўша муаллиф. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924 гг.) Автореф.дисс. соис.учен. степ. докт. ист. наук. -Т., 2005; Ўша муаллиф. Теоретико-методологическая основа изучения истории вооруженного движения в Туркестане в 1918-1935 гг. Россия-Узбекистан: история и современность (ч.II) //ЕвроАзия. Москва, 2008. № 3. -С. 4 -15.

hollarining berilishi O‘zbekiston matbuoti tarixi solnomasini yaratish uchun boy manbalardan biri bo‘la oladi.

Abbos Alievning gazetadagi faoliyati davri tahlil qilinar ekan, Buxoro va butun Turkiston mintaqasidagi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat kommunistik mafkura nuqtai nazaridan baholanib, barcha madaniy-ma’rifiy muassasalarining sovetlashtirilishi targ‘ib qilinganligi, BXSR (keyinchalik BSSR) iqtisodiy manfaatlarini Markaz ixtiyoriga buysundirish manfaatiga urinilganligi guvohi bo‘linadi. O‘rtta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredazEKOSO)⁴¹ faoliyatining ijobjiy baholanganligi, BKPNing har bir tadbirini to‘g‘ri va adolatli deb hisoblanganligi haqidagi maqolalar uchun gazeta ochiq mafkura minbari va maydoniga aylandi. Gazetaning bir qator sonlarida “Siyosiy hangoma” rukni ostida hukumatning mahalliy xalq orasidan chiqqan halol va millatparvar ayrim rahbarlari va milliy ziyolilarning vakillari hajviy tanqid ostiga olindi.

“Ozod Buxoro” gazetasi BXSRda kechayotgan yirik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar va ularning echimlari to‘g‘risida maqola va xabarlar bosish o‘rniga mayda ijtimoiy muammolar: kichik o‘g‘rilik, ichkilikbozlikka berilgan odamlar, mayda talafotlar, giyohvand ayrim kimsalar haqidagi ma’lumotlarni bergen.

Mafkuraviy cheklanish, sayoz va bo‘sh mazmun kasb etuvchi maqolalarining ko‘payishi “Ozod Buxoro” o‘quvchilarining gazetaga qiziqishini bir oz susaytirgani tabiiy hol. Gazeta sahifalari ko‘proq moliyaviy holatni yaxshilash uchun pul topish evaziga katta-yu kichik e’lon, bildirish, reklama tarzidagi xabarlar bilan to‘ldirib tashlangan. Bu salbiy jihat bilan birga kichik xabar, e’lonlarning ostidagi ism-shariflar orqali BXSR hukumati a’zolari, viloyat va tumanlardagi rahbar xodimlar, davlat muassasalarining turli lavozimlarida ishlagan kishilar haqida hamda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlarda ishtirok qilgan shaxslar bilan bog‘liq keng ma’lumot olish mumkin. Bu esa o‘z davri tarixiy jarayonlarini atroflicha tahlil qilib o‘rganishga yordam beradi.

⁴¹Ўрта Осиё Иқтисодий Кенгashi (СредазЭКОСО) - 1923 йилда ташкил топган бўлиб, унинг биринчи таъсис курултойи 1923 йилнинг 5 март куни ўtkazilgan. 1926 йилда у қайта tuzilgan.

“Ozod Buxoro” gazetasida BXSRdagi matbuotning ahvoli, matbaachilik ishi, gazeta va jurnallar chop ettirish, matbuot bilan bog‘liq muammo va vazifalar haqida ham maqolalar chop etib borilgan. Gazetalardagi matbuot haqida yozilgan xabar va maqolalardan matbuotning o‘scha davrdagi umumiy ahvoli, gazetxonlarning matbuotga munosabati, gazetalarning moddiy-texnikaviy bazasini yaratish yo‘lidagi ishlar, gazetalarni uning o‘quvchilari orasida tarqatish kabilardan voqif bo‘linadi. “Ozod Buxoro”ning ko‘plab sonlarida va undan oldin chop etilgan “Buxoro axbori” gazetasida “Matbuotimiz nima uchun yuksalmaydur”, “Matbuot haqida yana bir-ikki so‘z” (Ziyo Usmoniy), “Turkistonda matbuot” (muxbir), “Matbuot nimadur?” (Bekboy), “Gazetaga ko‘mak bering!” (taxririyat), “Buxoroda matbuot”, “Uchqun” jurnali” (Buxoro xabarları), “CHorjo‘yda til gazetasi” (muxbir), “Matbuot va adabiyot” (muxbir), “Gazetaga yordam beringlar” (tahririyat), “Qo‘rqma, gazeta gunohsizlarni tishlamaydur!” (“Mufattish”), “Gazeta yuborishga diqqat qilinsun!” (Behbudiylid-Qarshi shahridan), “Gazetaning birinchi davri”, “Gazetani tuzatish masalasi”, “Matbuot bayramiga tayyorlanmak kerak” (Said Ahroriy), “Gazetaning qishloqda tarqalishi” (muxbir) kabi maqola va xabarlar⁴² o‘rin olgan. Ushbu mavzudagi maqola va xabarlarning mazmuni asosan quyidagi masalalarga qaratilgan. Avvalo, BXSRda tub joy aholi tilida (o‘zbek tilida) gazeta va jurnallar chiqarish va tarqatish boshlanganligi, gazetaning targ‘ibotchilik faoliyatidagi o‘rni, matbuot uni o‘quvchilar uchun zaruriy ma’naviy ozuqa ekanligi, bu ishda barcha ziyolilar ishtirok qilishi kerakligi bayon qilinadi. Ayrim maqolalarning asosiy mavzusi esa 3-3,5 mln. aholiga ega bo‘lgan BXSR uchun 2000-2500 nusxada chop etiladigan “Ozod Buxoro” gazetasi etarli emasligi, muharrir va muxbirlarning etishmasligi va mavjudlarining xam malakaviy tajribasizligi, nashriyot (poliografiya) ishidagi son-sanoqsiz kamchiliklar va etishmovchiliklar, qog‘oz va boshqa ashyoviy buyumlar, musulmon shriftining chetdan keltirilishi muammolariga yo‘naltirilgan.

Ko‘pgina maqolalarda fikrlar qaytarilib, viloyat muxbirlari etarli darajada faoliyat olib bormayotganligi, shuning uchun respublika miqyosida atroficha

⁴² К.Рахмонов ва б. Эслатилган макола.

ma'lumot olish imkoniy yo'qligi, hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo'jaev va Qori Yo'ldosh Po'latov singarilardan boshqalar maqolalar bilan uning ishida jiddiy ishtirok qilmayotganligi qayta-qayta ta'kidlanadi.

“Ozod Buxoro” sahifalari orqali 1923-1924 yillarda ushbu gazetadan tashqari boshqa matbuot organlariga asos solinishi yo'lida xayrli harakatlar, urinishlar bo'lganligidan voqif bo'lish mumkin. Jumladan, Buxoro maorif nozirligi tomonidan oyda bir marta siyosiy, iqtisodiy, adabiy nashr “Uchqun” jurnalining 1-soni (1923 yil, mart) nashrdan chiqqanligi, jurnal 36 sahifa hajmida bo'lib, unda Abdurauf Fitrat va Qori Yo'ldosh Po'latovlarning fotosuratlari ham aks ettirilganligi xabari bosilgan.

“Qozoq matbuoti” maqolasi orqali qozoq tilida chop etiladigan “Oq jo'l” (“Oq yo'l”), “Ekbaxchim qozoq” (“Mehnatkash qozoq”), “Qozoq tili”, “Bo'stonduq tavri” (“Ozodlik bayrog'i”), “Qizil Qozog'iston”, “CHo'lpon”, “Temir qozoq” kabi gazeta va jurnallar Turkiston ASSR, RSFSR, Boshqirdiston, Uralbo'yi hududlarida bosilib chiqqanligi aniqlandi. 1923 yilda CHorjo'y viloyatida turkman tilida “Til” nomli gazetani chop etishga urinishlar bo'lgan.

BXSR hukumati tomonidan 1923 yili yangi “Ochiq so'z” gazetasini chop etish choralari ko'rildi. Hatto uning 1-soni uchun 1000 oltin so'm ham ajratilgan edi. Biroq ushbu nashr chop etilganligi to'g'risida uchratgan manbalarda hech qanday ma'lumotlar mavjud emas.

“Buxoro axbori” gazetasining birinchi muharriri Said Ahroriyning “Ozod Buxoro” sahifalarida “Gazetaning birinchi davri” nomli salmoqli maqolasining bosilib chiqishini 4 yil davomida Buxorodagi matbuotchilik ishining tahliliga bag'ishlangan o'ziga xos hisobot sifatida baholash mumkin⁴³. Mazkur maqolada “Buxoro axbori” xamda “Ozod Buxoro” gazetalarida ishlagan muxbir va xodimlar, ular tomonidan yozilgan maqola va xabarlarning o'ziga xos jihatlari, gazetaning takomillashib borish jarayoni atroflicha tahlil qilinadi. SHuni o'rinda gazetalar qariyb 45 ta turli-tuman ruknlar ostida materiallar bosganligini alohida qayd etish mumkin.

⁴³ Ўша жойда

Xullas, “Ozod Buxoro” chop etilgan 1923 yilning kuzidan 1925 yilgacha bo‘lgan tarixiy davrda, ayniqsa, unga A.Aliev muharrirlik qilgan vaqtida hukmron mafkura ta’siri yaqqol seziladi. SHaxsan muharrirning o‘zi gazetalardagi faoliyati bilan kommunistik tashviqot va targ‘ibotning quruq ijrochisi bo‘lib qolganligi ko‘rinadi.

“Ozod Buxoro” gazetasida “Buxoro axbori”ga nisbatan viloyat muxbirlarining roli oshib, ularning gazeta tahririyatiga yo‘llagan ayrim maqolalari ichida joylarda kechayotgan voqealar tafsilotini xolisona yoritgan ayrim maqolalar borligini ham inkor qilib bo‘lmaydi. Ba’zi muammolar ustida boshlangan munozaralar gazetaning o‘nlab sonlarida davom ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari BXSR hukumati o‘rnatilganidan so‘ng o‘zbek tilida chop etilgan matbuot nashrlari bo‘lib, ular har oyda kamida 4-6 marta chop etilgan. Gazetalarning nashr soni yildan-yilga o‘sib borgan. “Buxoro axbori”da Said Ahroriy, Abdulxamid CHo‘lpon, Ziyo Usmoniy, Ostonkul Abdulqiyomov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov bosh muharrir bo‘lib faoliyat yuritgan bo‘lsalar, “Ozod Buxoro” gazetasida esa Qosim Sorokin, Abbas Aliev kabi mas’ul muharrirlar hamda ikkala gazetada 90 nafardan ortiq muxbirlar va mualliflar o‘z maqolalari bilan qatnashganlar. Gazetalarning sifati, soni, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ta’sirchan kuchi, o‘z davrida kechgan jarayonlarni xolisona bayon qilinishi, ayniqsa, Said Ahroriy, Abdulxamid CHo‘lpon, Qori Yo‘ldosh Po‘latovlarning “Buxoro axbori”da muharrirlik qilgan yillarida yuksalgan.

Xullas, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari XX asrning 20-yillaridagi o‘zbek milliy matbuotchiligi tarixida o‘ziga xos o‘rin va mavqega ega bo‘lish bilan birga tarixiy manba bo‘la olishi jihatidan ham ahamiyatlidir.

2-bob. BXSR yillarida chop etilgan gazetalar va hukumat matbuoti taraqqiyotining atoqli namoyandalari

2.1.Said Ahroriy- Buxoro milliy matbuoti asoschilaridan biri

XX asr ma'rifatparvarlari orasida noshir va matbaachi, shoir va ijodkor, istiqlol fidoysi Muxammad (Maxmud) Said Axroriyning (1895-1931) ham munosib o'rni bor. Said Axroriy o'z umrining 1920-1930 yillardagi sermahsul davrini Buxoroda o'tkazdi. S.Axroriy ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda o'nlab mazmunan boy, mulohazaga chorlovchi maqolalar, she'rlar va badialar yaratdi. Ularda o'sha davr tarixiy muhiti, qalb iztiroblari, hayot qiyinchiliklari, turmush chigalliklari badiiy, publitsistik uslubda yuksak mahorat bilan bayon qilingan. Istiqlol fidoysi bo'lgan Said Ahroriy 1918-1931 yillarda «Turk so'zi», «Ishtirokiyun», «Uchqun», «Buxoro axbori», «Ozod Buxoro», «Zarafshon», «Qizil O'zbekiston» gazetalarida xamda «Alanga», «Maorif va madaniyat», «Maorif va o'qituvchi» kabi jurnallarda o'nlab maqolalar, badia va she'rlar e'lon qildi. «Buxoro jug'rofiyasi» nomli darslik, «Oila kitobi» (Xonim-qizlarimizga tortiq» va «Sovchi» kabi ikki kitobdan iborat) ham Ahroriy qalamiga mansubdir. Said Axroriy 1920 yilda Buxoroga kelib, BXSR matbuot organi bo'lgan «Buxoro axbori» gazetasining 1920 yil 9 sentyabrida dunyo yuzini ko'rgan birinchi sonidan 1921 yil 30 iyunda chiqqan 41-soniga qadar bosh muharirlik vazifasida ishladi⁴⁴. Ta'kidlangan davrda uning 28 ta maqolasi gazeta sahifalarida e'lon qilindi. 1921 yil yozidan Said Ahroriy Ozarbayjondagi Buxoro Respublikasining konsuli vazifasiga o'tkazilgan. Mahmud Said Ahroriy (gazetada uning ism-sharifi shu tarzda yozilgan) 1922-1925 yillarda «Buxoro axbori» (keyinchalik «Ozod Buxoro») sahifalarida maqolalar e'lon qilishni davom ettirgan. Buxoro Respublikasi

⁴⁴ Ҳайитов Ш. Биринчи мухаррир. “Бухоронома”. 2003 йил 10 сентябр

(1920-1924 yillar) tarixini mukammal o‘rganishda Said Axroriy ma’naviy merosining ham o‘z o‘rni bor⁴⁵.

Said Axroriyning ilmiy va madaniy merosida tarbiya, ta’lim, komil insonni etishtirish masalalariga qaratilgan maqola hamda asarlar salmoqli o‘rinni egallaydi.

Muallifning «Ta’lim va tarbiyaning insong‘a qarashi», «Fikr tarbiyasi», «Hofiza kuchi», «Qanday kishi murabbiy bo‘la oladur?», «YOshlarimizga», «Turmush yo‘linda», «Eski-yangi tarbiya usullarindagi ayirmalar» kabi maqolalari hamda «Oila kitobi» («Xonim-kizlarimizga tortiq» va «Sovchi» kitoblaridan iborat) (1) bevosita ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangandir.

Said Axroriy, avvalo, inson omili, uning moddiyati va ma’naviyati haqida bahs yuritar ekan, sog‘lom va jismonan baquvvat bo‘lish, ilmiy va faniy rivojning asosi deb qaraydi.

«Sog‘ligi muvozanatsiz bo‘lgan bir kishida ruhning ham qiynalib qolishini, ma’naviyatning ham talabi zaif bo‘lishini fan va bilimlar tasdiq etgandir... Bilim kerak, lekin sog‘lik zarurdir», (2)-deb hisoblaydi.

U tarbiya masalasida insonning jismoniy sog‘ligi va fikr barkamolligi kabi omillarni alohida ta’kidlar ekan, insoniyat tarixidan bir qator misollar keltiradi.

«Hofiza kuchi» maqolasida insonga ato etilgan iste’dodlardan biri-bu hofiza (yodda saqlash) ekanligini ta’kidlab, tarbiya jarayonida uni shakllantirish murabbiylarning asosiy vazifasi bo‘lishi kerakligini uqtiradi.

Said Axroriyning «Qanday kishi murabbiy bo‘la oladur?» (1923 yil noyabr) degan maqolasi kishini keng mushohada yuritishga chorlaydi. Maqolada tarbiya ilmi jiddiy masala bo‘lib, bolalarimiz tarbiyasini hammaga ham ishonmaslik, parvosizlik ko‘rsatmaslik haqida qimmatli maslahatlar beriladi.

Tarbiya bilan ma’lumot (bilim) bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liqligi, tarbiyasiz kishi qancha ma’lumotli bo‘lsa ham murabbiy bo‘la olmasligi, aksincha, quruq ma’lumotning o‘zi ham murabbiylik uchun etishmasligi maqola mazmuniga singdirilgan.

⁴⁵ Хайитов Ш. Биринчи мухаррир. “Бухоронома”. 2003 йил 10 сентябр

Inson xarakterida soflik, qonida g‘ayrat va shijoat, nomus va hissiyot, yuragida otash bo‘lishi, kelajakka ishonch bilan qarab ish tutish uchun bolalarni so‘zi bilan ishi bir bo‘lgan murabbiyga topshirish zarurligi S.Axroriy tomonidan qayta-qayta ta’kidlanadi.

«Tarbiya va ma’lumot (bilim) yonma-yon bo‘lib, ilm-deydi u,-domlalik qilib yurgangina emas, balki eng tuban, eng vahshiy turmush bilan yashag‘onlarga ham kerakdur... Turmushga kerakli narsalarning har qaysi qismini bo‘lsa-bo‘lsun bilmak ilmdur... O‘z vazifasiga tegishli bo‘lg‘on ilmlardan bahrasiz qolg‘on bir kishiga ishonib, bir hayvon topshirilmog‘onligi holda, bir chala ilmli domлага insonlarni topshirishga qanday ishonib bo‘ladi? Bu xam chuqur o‘rganishga tegishli bir masaladur»⁴⁶.

YUqoridagi fikrlarni tahlil qilar ekanmiz, zamon taraqqiyoti, hayotdagи o‘zgarishlar har bir jamiyat a’zosidan u ishchimi, dehqonmi, chorvadormi, xullasi kalom kim bo‘lishidan qat’iy nazar, umumiylar ma’lumotga, o‘z yo‘nalishida bir qadar ilmga ega bo‘lishini taqozo qiladi. CHunki murakkab texnikani ishlatalish ishchidan maxsus malaka va ko‘nikmalarni talab qilsa, dehqon esa hosildorlikni oshirish uchun agrotexnika qoidalarini bilmog‘i, cho‘pon ota-bobolari tajribasidan xabardor bo‘lishi barobarida veterinariya ilmidan boshlang‘ich bilimga ega bo‘lishi hayot taqozosidir. Said Axroriy fikrlarining hozirgi zamonga hamohangligi shundaki, ta’limning bizda ishlab chiqilgan uzluksiz jarayoni va o‘rta maxsus ta’limning majburiy-ixtiyoriyligi, zamonaviy texnologiya vositalaridan o‘qitish jarayonida foydalanish parametrlariga mos keladi. Avvalo, «ilmdan bahrasiz qolgan ma’lumot va tarbiyani bir-biridan ajratg‘on insonlar barkamol bo‘lolmaslar», (4)- deb yozadi Axroriy.

S. Axroriy o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan quruq yodlash, zo‘rlash yo‘li bilan bolalarni o‘qitish va tarbiya qilishni keskin tanqid qiladi. Nazariyot va amaliyotni qo‘shib borish, ta’limni tugal, unumli bo‘lishidagi asosiy omil deb

⁴⁶ Ҳайитов Ш., Рахмонов К. Истиқлолнинг икки буюк фарзанди. Бухоро-2003 й. –Б. 12.

qaraydi. Ibrat-namuna ko'rsatish orqali tarbiyalash usulini qo'llash ko'p foyda berishiga e'tiborni qaratadi.

Said Axroriy tabiat-ulug' hikmat, unda sir-asrorlar, bag'rikenglik, joziba va go'zallik jamuljam bo'lganligi haqida fikr yuritar ekan, go'zallik tarbiyasining asosi tabiatda deb qaraydi. Tabiatni e'zozlashga, uning moddiy ne'matlar asosi ekanligini anglashga, asrab-avaylashga bolalarmi o'rgatish tarbiyaning muhim omillaridan biri ekanligini qayd qiladi. Uning tabiat va inson uyg'unligi, o'zaro bog'liqligi haqidagi fikr- mulohazalari bugungi kunda zaruriy, hayotiy ahamiyat kasb etmoqda. Ehtimolki ushbu inson o'zi yashab turgan asr oxiriga kelib, ekologiya umumjahon muammosiga aylanishini qalb ko'zi bilan his qilgandir.

Mazkur fikrlar Said Axroriy pedagogik qarashlari ummonidan olingan bir tomchidir xolos. CHunki biz o'zimiz tanishgan maqolalar doirasidagina fikr yuritdik. Holbuki, u kishining qizlari keksa jurnalist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xolida Axrorova: «Men otamning bir qator maqolalarini chop etilganini bilamanu, lekin qariyb o'n yil izlanib ham topolmadim. Xullas, izlanish hayotim poyoniga etganiga qadar davom etadigan ko'rindi»⁴⁷ , -deb yozgandi. Haqiqatan ham, hali Said Axroriyning ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'luman asarlari talaygina. Ularni izlab topib, tafakkur chig'irig'idan o'tkazish esa Pedagogika tarixi fani mutaxassislarining vazifasidir.

Muhojir o'zbek oilasida dunyoga kelgan, o'z umrining 23 yilini Arabiston va Turkiyada yashagan Muhammad Said Abdurashidxo'ja eshon o'g'li-Said Ahroriyning (1895-1931) tarixiy va madaniy merosi bugungi kunda tadqiqotga muxtojdir.

Said Axroriy 1920 yilda Buxoroga kelib, BXSR matbuot organi bo'lgan «Buxoro axbori» gazetasining 1920 yil 9 sentyabrida dunyo yuzini ko'rgan birinchi sonidan 1921 yil 30 iyunda chiqqan 41-soniga qadar bosh muharrirlik vazifasida ishladi. Ta'kidlangan davrda uning 28 ta maqolasi gazeta sahifalarida

⁴⁷ Said Axroriy «Танланган асарлар». Тўплаб, нашрга тайёровчи X.Axrorova.-Тошкент, «Маънавият» 2001 йил (Истиқолол қаҳрамонлари), 46-86-саҳифаларда

e'lon qilindi. 1921 yil yozidan Said Ahroriy Ozarbayjondagi Buxoro Respublikasining konsuli vazifasiga o'tkazilgan. Mahmud Said Ahroriy (gazetada uning ism-sharifi shu tarzda yozilgan) 1922-1925 yillarda «Buxoro axbori» (keyinchalik «Ozod Buxoro») sahifalarida maqolalar e'lon qilishni davom ettirgan.

Buxoro Respublikasi (1920-1924 yillar) tarixini mukammal o'rganishda Said Ahroriy ma'naviy merosining ham o'z o'rni bor.

Ushbu maqola mualliflari Buxoro Respublikasi yilnomachilaridan biri bo'lgan Mahmud Said Ahroriyning «Tanlangan asarlari»⁴⁸ sirasiga kirmagan, hanuzgacha «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarining turli sonlarida qolib kelayotgan maqolalarini bir qadar tahlil qilishni o'z oldlariga maqsad qilib qo'ydilar.

Buxoro Respublikasi tarixi milliy qadriyat va milliy istiqbol nuqtai nazaridan yozgan o'lkamiz milliy ziyolilari Elbek, Botu, Fitrat, CHo'lpon kabilar qatorida Said Axroriy nomini tilga olar ekan,-tarixshunos olim, ustoz F.H.Qosimov, haqli suratda: «Bu maqolalarning asosiy yo'nalishi rasmiy bolshevistik g'oyadan farq qilib, mahalliy ziyolilarni vatan va millat istiqboli haqida chuqur o'ylashga chaqirar edi»⁴⁹, -deb yozadilar.

«Buxoro axbori» gazetasining 2-sonida «Inqilobimiz»⁵⁰ nomli salmoqli maqolasi bilan chiqqan Said Ahroriy Buxoroda monarxiya tartibining ag'darilishi amir tuzumiga chek qo'yganligi, SHarq dunyosida esa sezilarli ahamiyat kasb etganligini qayd qiladi. Tuzilajak davlat idoralari xalqning manfaati yulida xizmat qilishi, «tenglik va barobarlik!» shiorlari hayotga tadbiq qilinishiga ishonch bildirilgan. «Endilikda hamma xalq barobar, har kishi teng bo'ldi, ya'ni xoh u boy, xoh u gadoy, xoh u mullo, xoh u olim, xoh u katta, xoh u kichik hamma barobardur. Huquq jihatdan hech kimsaning bir-biridan farqi yo'qdur»⁵¹-deb yozadi muallif. Maqolada yangi respublika ulug'ver ishlarni amalga oshira olishiga ishonch bilan qaralgan. Gazeta o'sha paytda

⁴⁸ Сайд Ахрорий. «Танланган асарлар». Тошкент.«Маънавият»-2001й. 104-бет. (Истиклол кахрамонлари). / Туплаб, нашрга тайёрловчи Холида Ахророва/

⁴⁹ Косимов Ф. «Бухоро Республикаси тарихшунослиги». Бухоро.1996й.13-бет.

⁵⁰ «Бухоро ахбори» 1920 йил 15 сентябр, 2-сон // Махмуд Сайд. «Инкилобимиз».

⁵¹ Уша жойда.

«Buxoroning ilk qurultoyi»⁵² nomli muharririyat maqolasida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va xalqning kayfiyatini ifodalagan.

1920 yil 6 oktyabrdan Sitorai Moxi-Xosada bo‘lib o‘tgan qurultoyda Buxoroning barcha shahar va qishloqlaridan kelgan 1894 delegat ishtirok qilganligi, anjumanda Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro Inqilobiy Qo‘mitasi raisi), Oqchurin (Buxoro Komfirqasi xodimi), Hakimov (Rusiya vakili), Soloveychik (Rossiya elchixonasi vakili) kabilar nutq so‘zlaganligi va ularning nutqi to‘liq keltiriladi.

Said Ahroriyning «Turush yo‘linda», «Qish keldi, tovushsizlar qotmasin», «Xotun», «Davlat ishlarida erlilarga yordam etilsun»⁵³ nomli maqolalarida Buxoro Respublikasida kishilarning turmush tarzi, ijtimoiy ahvoli bayon qilinadi. Mamlakatda 1923 yil qishi qattiq kelganligi, badavlat xonadonlarda, korxonalarda yashayotgan uy –joysiz, iqtisodiy nochor ahvolda bo‘lgan etim-esir o‘g‘il va qizlar ancha foizni tashkil qilishini yozar ekan, Said Ahroriy bu masalaga hukumat idoralarining diqqatini jalg etadi. «Tovushsizlar (ya’ni xo‘jayin tomonidan quvg‘inga uchramaslik uchun tovush chiqarishga jur’at qilolmaydiganlar) SHarqdagi mamlakatlarda faqat ovqat uchungina xizmat qilib turmaydilar, balki ularga ayrim moyana berilmog‘i bilan barobar yiliga ikki marotaba yozlik va qishlik kiyim beriladi, o‘qitiladi, uylantiriladur»⁵⁴, -deb yozgan muallif.

Nochor va qashshoq kishilar, ayol va bolalar yarim yalang‘och, oyoqyalang holda hovuzdan suv tashib, yuk ko‘tarib, chorva mollarini boqib, qor kurab, qorovullik qilib, bir burda nonlarini topayotganligi bilan bog‘liq haqiqiy ahvolni ifodalovchi fikrlar bildirilgan. SHo‘ro hukumat idoralari nochorlarga etarli e’tibor bermayotganligi, mahalliy millat vakillari ma’muriyat idoralarida dastlabki yillarda (1920-1921 yillar) bor-yo‘g‘i 20 foizni, 1923 yil oxirida esa 50 foizni tashkil etganligi bilan bog‘liq raqamlar keltiriladi.

«Xotun» maqolasida xotin-qizlarning haqiqiy ma’nodagi tenglikka erishmaganligi, ular orasida ma’rifatsizlik, xo‘rlik kuchliligi bilan bog‘liq achchiq

⁵² Бухоронинг илк курултойи. «Бухоро ахбори» 1920 йил 11 октябр, 5-сон.

⁵³ «Бухоро ахбори» 1921 йил 5 апрел, 30-сон, «Озод Бухоро» 1923 йил ноябр, 30-сон, 1923 йил 6 ноябр, 8-сон, 1923 йил октябр.

⁵⁴ Махмуд Said Ахрорий. «Киш келди, товушсизлар котмасун». «Озод Бухоро» 1923 йил, 30-сон.

haqiqat ochiq bayon qilingan. «Erkakning o‘ylaganicha xotin ermakdur, o‘yinchoqdur, qo‘g‘irchoqdur. Ko‘ngli qanday tilasa shunday sevadur, mijg‘alaydur, sindiradur va ezadur»⁵⁵. Bu masalada Said Ahroriyning shaxsiy fikri esa oliyjanob bo‘lib: «Xotunga hurmat bilan qaramag‘on erkak tubanlardan tubandur».

1923 yil 9 sentyabrda «Buxoro axbori» Said Ahroiyning «To‘rtinchi inqilobiy yilimizdandan nimalar kutamiz»⁵⁶ nomidagi yirik maqolasini bosdi. Ta’kidlash joizki, ushbu maqola Buxoro Respublikasining 3 yil davomida (1920-1923 yillar) iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, madaniy-ma’rifiy, milliy, siyosiy-xarbiy sohalardagi faoliyatini tahlil qilib, kelgusida bajariladigan vazifalar tug‘risida bahs yuritadi. Muallif Buxoro Davlat Bankining faoliyati, fabrika va zavodlardagi ishlab chiqarish, shirkat xo‘jaliklari haqida yozar ekan, o‘tgan tarixiy davrda hukumat dehqonlarga: «bug‘doy, urug‘lik, g‘alla, ho‘kiz, asbob va oqcha bilan jami 300 mln. oltin so‘mlik yordam berdi»-degan fikrlarni keltiradi. Bu yillarda «alohida dehqonlar banki» tashkil etilganligini ahamiyati to‘g‘risida gapirib: «Bir masala bordurki, hamma dehqonlarimizni ma’naviy jihatdan tarbiya etmak, yangi usulda faniy ishlar o‘rgatmak, mashina va boshqa asbob qo‘llatib, oz zahmat va oz chiqim bilan ko‘p mahsulot olib dehqon xo‘jaligini boy qilmoqdur»⁵⁷ -deyilishi muhimdir. Buxoro Respublikasi hukumati istiqbol rejasida zamonaviy texnologiya asosida qishloq xo‘jaligini vujudga keltirish, kooperatsiya tizimini taraqqiy qildirish kabi ulug‘ maqsadlar bor edi.

Said Ahroriy Buxoro Respublikasidagi milliy masalaga ham alohida to‘xtalga. Ayniqsa, iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq bo‘lgan turkman va qirg‘izlarning turmushini yaxshilash masalasidagi tadbirlarga e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, Said Olimxon bilan birga va undan keyingi davrlarda 35 ming oila: jami 2 mln turkman tushunib-tushunmay, turli tashviqotlarga uchib qo‘shni davlat Afg‘onistonga o‘tib ketgan edi. Buxoro xukumati turkmanlarni 1922-1923 yillarda o‘z yurtiga qaytarib, ular xo‘jaligini tiklashga yordam ko‘rsatdi.

⁵⁵ «Бухоро ахбори» 1923 йил 15 октябр.

⁵⁶ ««Бухоро ахбори» 1923 йил 9 сентябр, 199-сон. // С.Ахорий. «Туртинчи инкилобий йилимиздан нималар кутамиз».

⁵⁷ Уша жойда.

«Yo‘qsil turkmanlarga hukumat yordam uchun bir yuz besh (105) ho‘kiz, bir ming (1000) pud mosh, to‘rt ming pud (4000)kunjut, besh ming pud (5000) jo‘xori, o‘n ming pud (10000)bug‘doy bergen ersada, hukumat bu miqdorni oz deb biladi»⁵⁸. Turkman va qirg‘izlarda maorif, maktab masalalari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, «Mollar qarovsiz qoladi», «Ishdan qoladi» kabi vajlar bilan ota-onalar bolalarini maktabga yubormayotganligi Said Ahroriy tomonidan kuyinchaklik bilan yozilgan. Qirg‘izlar esa asosan ko‘chmanchi chorvachilik bilan kun ko‘rib, uch respublika (BXSR, XXSR, TASSR) hududlarda ko‘chib yurishgan. Uchala respublika bir yil davomida o‘z yashash joyini o‘zgartirgan qirg‘iz fuqarolariga yangidan g‘alla va mol solig‘i (ya’ni soliqni to‘laganlaridan keyin boshqa jumhuriyat tuprog‘iga ko‘chib o‘tganda ikkinchi bor soliq olmaslik tartibi) solmaslik to‘g‘risida kelishib olishgan. YUqoridagi ma’lumotlar yuksak qimmatga ega.

Buxoro Respublikasidagi siyosiy va harbiy masalalarning ahvoli haqida yozar ekan, Said Ahroriy qizil armiyachilar soni 200 ming atrofida bo‘lib (1923 yil) shundan 2 ta polk (1 polkda 800-1000 kishi bo‘ladi.) mahalliy millat vakillaridan iboratligini ta’kidlaydi. Qizil Armiya askarlari va qizil militsionerlarni boqish davlat byudjetiga katta chiqim bo‘layotganligiga alohida urg‘u beriladi. Armiyada milliy mutaxassislarni ko‘paytirish choralarini ko‘rish kun tartibidagi muhim masala bo‘lib qolayotganligi uqtiriladi.

«Masalaga yaxshi qaraylik»⁵⁹, «Davlat ishlarida erlilarga yordam etilsun»⁶⁰ kabi maqolalarda ham ma’muriy boshqaruvi tizimi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi. Mamlakat idora va tashkilotlarida keragidan 200-300 foiz ko‘p miqdorda xodimlar ishlayotganligi, birgina markaz Buxoroda 5000 idora xodimi faoliyat ko‘rsatayotganligi, natijada davlat byudjetida 10 million oltin so‘m kamomad mavjudligi bayon qilinadi. Muallif idoralarni qo‘shish, qisqartirish, ulardagi xodimlarni xalq xo‘jaligiga jalb qilish, ma’murlardagi ot, aroba, foytunlarni xo‘jalik sohasiga o‘tkazishni taklif etadi.

⁵⁸ Уша макола.

⁵⁹ С.Ахрорий. «Масалага яхши карайлик» // «Бухоро ахбори», 1923 йил 26 сентябр, 206-сон.

⁶⁰ С.Ахрорий. «Давлат ишларида ерлиларга ёрдам этилсун» // «Озод Бухоро» 1923 йил 6 ноябр, 8-сон.

Buxoro Respublikasida moliya va soliq tizimini tartibga solish uchun bu sohada rahbarlar etishtirish uchun moliya nazorati qoshida maxsus kurslar tashkil etilgan. Biroq bu kurslarni bitirganlar o‘z ixtisosи bo‘yicha ishlamasdan qalloblik yo‘liga kirgan. Said Ahroriy: «Moliya nazorati huzurida moliya va soliq rahbarlari etishtirmak uchun maxsus kurslar ochilib, shogirdlariga ish o‘rgatmakdan boshqa o‘shal vaqtarda 700 tanga oylik belgilangan holda hali ulardan birortasining o‘z ixtisosи bo‘lgan bir ishning boshiga o‘tirganini ko‘rmadik. Bulardan birini o‘zim qiziqtirib shu kursga yozdirgan edim. Bu kun esa ularda ixtisos emas, oqchaga ta’ma ko‘raman»⁶¹, -deb yozadi. Boshqaruvda sansolorlik, raxbarlar o‘rtasida shaxsiy adovat, manmanlik, yoshlarga yo‘l bermaslik, poraxo‘rlik, suiste’molchilik holatlari mavjudligi aniq misollarda ko‘rsatilgan. «Buxoro viloyati ijroqo‘mi muovini o‘rtoq Yo‘ldoshev yangi raisga ish o‘rgatish kerak bo‘lgan holda hamma ishlarga o‘zi qanot yozmoqdadur. Hatto idoralarga raisning o‘zi borishi lozim kelganda o‘rtoq Yo‘ldoshevning o‘ziga boradur. Men o‘z ko‘zim bilan ko‘rdimkim, rais bilan ikkalasi bir oliv muassasaga borganda o‘rtoq Yo‘ldoshevning o‘zi kirib rais kabinetdan tashqarida kutib qolgandur. Bu ham raisning halim tabiatli bo‘lib, Yo‘ldoshevning mag‘rur bo‘lganligi isbotidur. Buxoro Respublikasidagi yutuqlar bilan ijtimoiy-siyosiy hayotdagi illatlarni bayon qilish Ahroriy maqolalarining ta’sirchanligini oshirgan va keng jamoatchilikda qiziqish uyg‘otgan. Bu masalaning bir jihat bo‘lsa, ikkinchidan bu kishi nodir talant egasi bo‘lib badiiy ijodiyotda ham tanilgan qalamkash edi. Ilmiy va badiiy salohiyatning qo‘shiluvidan o‘quvchini o‘ziga tezda oshno qiluvchi mazmunli, teran fikrlarga boy maqolalar yozilgan.

Said Ahroriy maqolalari bilan tanishar ekanmiz, ulardagи Buxoro Respublikasining madaniy-ma’rifiy tarixiga oid ko‘pgina raqam va tafsilotlarga duch kelamiz.

Jumladan: «To‘rtinchi inqilobiy yilimizdan nimalar kutamiz?», «Dorilfununimiz qaldirg‘ochi»⁶² kabi salmoqli maqolalarida «Buxoro uchun ilk kuchli qurol maorif va madaniyatdур»-deb ta’kidlanadi. 1921-1923 yillarda maorifga davlat byudjetining 17-

⁶¹ Уша жойда.

⁶² Сайд Ахорий «Дорилфунунимиз калдиргочи» // «Озод Бухоро» 1923 йил 10 ноябр, 10-сон.

25 foizi sarflanganligi, o‘tgan tarixiy davrda Buxoroda 64 maktab, 2 dorilmuallimin, bir necha musiqa maktablari va hunar maktablari ochilganligi, Germaniyaga 50, Moskvaga 50 nafar yigit bola va 25 nafar qizlarning o‘qish uchun yuborilganligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirar ekan, muallif maorif va harbiy sohaga mablag‘lar sarflashni sira kamaytirilmaslikni oqilona ish deb baholaydi. Said Ahroriy jumhuriyatda har yili 15 ming bola boshlang‘ich maktablarga o‘qish uchun borayotganligini yozadi. Maorif tizimida ham bir qator kamchiliklar bo‘lib, avvalo, maktablarning aksariyati hovli- joylarda ekanligi, pedagog mutaxassislar etishmasligi, o‘quv qurollari va darsliklar bilan o‘quvchilar to‘la ta’minlanmaganligi, ko‘pgina bolalar o‘qishdan chetda qolayotganligi bilan bog‘liq tanqidiy fikrlar bayon qilinadi.

«Dorilfununimiz qaldirg‘ochi» maqolasida 1923 yildan boshlab Buxoroda universitet ochish harakati bo‘lganligiga e’tibor qaratiladi. Biroq dorilfunun ochish uchun o‘sha paytda respublikada etarli mablag‘ va moddiy baza yo‘qligi muallif tomonidan to‘la asoslanadi.

«Dorilfunun ochish uchun kamida 200 mln. oltin so‘m miqdorida oqcha kerak. Bu maqsad uchun to‘plangan mablag‘ 50 mln. oltin so‘mdan oshmaydi. Unga iona qilingan mollar badali qo‘silsa, zo‘rg‘a 70 mln. so‘mga etadi. Davlat byudjeti qo‘srimcha 150 mln. oltin so‘m yukini esa ko‘tara olmaydi»⁶³-deb yozadi Ahroriy. Universitet ochish uchun etarli moddiy-texnikaviy baza bilan birga professor-o‘qituvchi mutaxassislar, hamda darslik va o‘quv qo‘llanmalar ham mavjud emasligi ko‘rsatilgan. Said Ahroriy dorilfunun ochish vazifasini istiqbolda qoldirib, Buxorodagi dorilmuallimlarni kengaytirishni taklif qiladi.

Muxammad Said Ahroriyning tarixiy, publitsistik maqolalarini o‘rganar ekanmiz, albatta ulardagi ba’zi bir noaniqlik va chalkashliklarga ham duch kelamiz.

Birinchidan, Buxoro Respublikasidagi aholi soni bilan bog‘liq ma’lumotlar maqolalarda turlicha raqamlarda keltiriladi. Said Ahroriy respublikada 2,5 mln, 3 mln, 3,5 mln miqdorida aholi yashashi bilan bog‘liq har xil ma’lumotlarni keltiradi. «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalaridagi bir qator boshqa mualliflar maqolalarida esa Buxoro Respublikasida 5 mln. kishi yashashi bilan bog‘liq raqam

⁶³ Уша маколада.

qayd qilingan. BXSRda aholi ro‘yxati o‘tkazilganligi bilan bog‘liq ma’lumotga duch kelmaganligimiz tufayli biz bu masalaga kelajakda aniqlik kiritish kerak deb o‘ylaymiz.

Ikkinchidan esa maqolalarda qayd qilingan bir qator shaxslarning ism-shariflari to‘liq holda keltirilmaydi. Bu tadqiqotchida ikkilanishni tug‘dirishi tabiiy.

YUqoridagi holatlarga qaramay Said Ahroriy maqolalari Buxoro Respublikasi tarixining «oq dog‘lari»ni to‘ldirishda va o‘tmishimizni yangicha tafakkur asosida o‘rganishda qimmatli manbadir.

Umuman Said Ahroriy ilmiy-madaniy merosi jiddiy tadqiqotni taqozo qiladi. Chunki serqirrali ijod egasi bo‘lgan Ahroriy o‘zining ibratli hayot yo‘li va faoliyati bilan istiqlol qahramonlari safidan munosib o‘rin olgan.

2.2.Mahmud Subohning BXSR matbuoti rivojiga qo‘sghan hissasi va uning publitsistik faoliyati

Istiqlolimiz sharofati bilan milliy ozodligimiz va erkimiz uchun kurashgan ma’rifat va madaniyatimiz darg‘alari bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Usmon Nosir, Ishoqxon Ibrat, Otajon Hoshim kabilarning ma’naviy merosidan bahramand bo‘ldik.

YUqorida ismi shariflari zikr qilingan ulug‘ insonlarning hayoti va faoliyati qirralarini yorituvchi maqolalar, asarlar, tadqiqotlar yaratildi. Ularning asarlari turli nashrlarimizda chop etilib, kitobxonlar hukmiga havola qilindi. Lekin XX asr ma’rifatparvarlari orasida shunday shaxslar borki, ularning ismi shariflari va faoliyati respublikamiz jamoatchiligiga yaxshi tanish emas.

Mana shunday insonlardan biri, quyida hikoya qiladiganimiz-Mahmud Suboh (Subay)dir. XX asr 20-30 yillari bilan bog‘liq matbuot organlari bilan tanishar ekanmiz, ma’rifat va ma’naviyat masalalariga oid o‘nlab maqolalar ostidagi Mahmud Suboh (gazetalarda Suboy) ism-sharifga duch kelamiz⁶⁴. Xo‘shtanish.

⁶⁴ Ҳайитов Ш., б. Бухоро Ҳалқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий хаёт. - Бухоро: Бухоро, 2005. -Б.66.

Mahmud Suboh kim bo‘lgan? Ma’lumki, 1920 yil sentyabrda Buxoroda amirning monarxiya tartibi ag‘darilganidan so‘ng, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi amirlik davridagi 28 ta beklik (ba’zi manbalarda 30 ta beklik deb qayd qilinadi) o‘rniga 9 ta viloyatdan iborat ma’muriy bo‘linishni joriy qildi. Markaziy boshqaruв tizimida hukumat organlari zamonaviylashtirilib, nozirliklar tashkil qilindi. YAngicha tarixiy sharoitda nozirliklarga faoliyat olib boradigan savodli, ma’muriy sohadan xabardor mutaxassislarga ehtiyoj sezildi. Jumladan, Maorif nozirligida ham milliy mutaxassislar etishmasdi. Maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov (1920-1922 yillar) turkiy xalq vakillaridan (tatar, boshqird, ozarbayjon, turk) savodli, malakaviy tajribaga ega, ijodiy qobiliyatli shaxslarni o‘zi rahbarlik qilayotgan nozirlikda ishslash uchun taklif qiladi.

M.Suboh ham asli tatar millatiga mansub bo‘lib, Buxoro Respublikasi dastlabki yilda maorif nozirligining umumiylishlari bo‘limi mudirligi lavozimiga taklif etilgan. Keksa jurnalist Abul Bozorov qayd qilganidek, u rus, arab, fors, turkiy tillarni puxta bilgan. Qozon ma’rifiy va adabiy muhitida voyaga etgan Suboh yangi hukumat tarkibida faol ishlagan.

Biz uchratgan manbalarda uning yashagan yillari bilan bog‘liq ma’lumotlar yo‘q. Buxorodagi ma’rifiy-ijodiy faoliyati bilan tanishar ekanmiz, Suboh o‘z davrining bilimdon, zukko kishisi, bo‘lishi bilan birga badiiy ijodga qobiliyatli va iqtidorli shaxs bo‘lgan, degan xulosaga kelishimizga ham asos bor. M.Suboh 1921-1923 yillarda «Buxoro axbori» gazetasida ma’rifiy-ilmiy yo‘nalishdagi bir qator maqolalari, hamda badiiy tavsifdagi hikoyalari bilan ishtirok qilgan. Uning «YUzni yuvmoq bilan oqartmoq kabi qalbnida o‘qimoq bilan oqartmoq kerak» («Buxoro axbori» 1922 yil 22 oktyabr, 104- son), «Til masalasi» (1922 yil, 2 noyabr, 107-son), «YAshay bilmagan odamlar qayoqqa o‘tirmoqlari ma’qul» (1922 yil, 16 noyabr, 110-son). «Maorif yo‘linda» (1922 yil, 23 noyabr, 112-son) kabi ilm va ma’rifiy ahamiyatga qaratilgan teran fikrlarga boy maqolalari, «Ergash» hikoyasi

(«Ozod Buxoro», 1923 yil, 17 noyabr, 126-son) bilan tanishar ekanmiz fikrimiz yanada yorqinlashadi⁶⁵.

Inson uchun ilm va ma'rifatning ahamiyati haqida yozar ekan Suboh: «Ilm o'rganmakdan haqiqiy maqsad o'zini haqiqiy inson qilmoqdur. Ilm orqasida yashaguvchilar o'quvdan boshqa hech tura olmaydilar»-qabilidagi fikrlarni keltiradi. Ilmsizlik jaholatga olib kelishi, u asrlar osha davom etib kelayotgan umumiy dushmanimiz ekanligi, undan qutulmasdan turib taraqqiyot pillapoyalaridan jadal rivojlanishimiz mumkin emasligi muallif tomonidan qayta-qayta ta'kidlanadi. Ilmu-hunar yoshlarga asosan maktabda beriladi. Xorijda bolalarimizning hammasini o'qita olmasligimiz, shuning uchun o'zimizdagи o'quv muassasalarini zamon talablariga ko'tarish masalasi Suboh maqolalarida qat'iy qilib qo'yilgan. U «maktab faqat xat savodsizlikni bitiraturg'on bir hunarxona emasdur. Maktab haqiqiy ma'nosи ila inson chiqara turg'on ilm va oliy maqsadli buyuk bir muassasadар»-deb yozadi. Bu fikrlar hozirgi zamon ruhi bilan hamohangdir. M.Suboh o'z maqolalarida maktablarni ta'mirlash bilan bog'liq ishlardagi masu'liyatsizliklar, o'quv kurslaridagi yuzakichilik hamda soxtakorliklar, mutaxassislarning no'noqligi masalalarini keskin tanqid ostiga oladi. «Qat'iy tartib va intizomsiz hukumatgina, maktabgina emas, bir oila ham yashay olmaydur. Eshkak tutmoqni bilmagan ma'murlar hukumat qayiqlariga o'ltirmaganlari ma'qul». YUqoridagi fikrdan, avvalo, har erda tartib-intizom zarurligi anglashilsa, ikkinchidan esa hukumat rahbarlari kema (qayiq) boshqaruvchisiga o'xshatiladi. Davlatning rivoji, xalq farovonligi va yuksak ma'naviyati ko'p jihatdan rahbarlarga bog'liqligiga ishora qilingan⁶⁶.

Ma'lumki, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida 1921 yil oktyabridan o'zbek tilini davlat tili sifatida qo'llash to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan. Hukumat idoralarida kim ona tilida ish tutmasa, jazolanib jarima to'lagan. Biroq ko'pgina xujjatlar yarmi aholiga tushunarsiz bo'lgan ajnabiyligi til (rus tili)da yozilardi va

⁶⁵ Ҳайитов Ш., б. Бухоро Ҳалқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. - Бухоро: Бухоро, 2005. -Б.67.

⁶⁶ Ўша жойда

tarqatilardi. M.Suboh o‘zining «Til masalasi» maqolasida respublikadagi rasmiy hujjatlarda imloviy qoidalar buzilayotgani, ba’zi e’lon va xabarlar shunchalik xatolarga to‘laki, hatto rus tilini biladiganlar ham hayratdaligi, bu esa, jinoyatligini o‘kinch bilan yozadi. «Hukumat tili shu hukumatning xo‘jasি bo‘lg‘on xalqning ona tilidur. SHu til bilan uning adabiyoti negizlangan, qalbining teran erindan o‘rin topg‘ondur». Demak, Suboh aytmoqchiki, millat taraqqiy qilishi uchun o‘z ona tilining sofligini saqlashi, uni boyitishi va qadrini bilishi zarur!

Til-millat ko‘zgusi, uni asrash va avaylash esa muqaddas burchimizdir. O‘z tili bo‘lib vatanida ajnabiy til bilan ish ko‘rmak millatni kamsitish, o‘zligini yo‘qotishgina emas, balki M.Suboh yozganidek, bu: «Hovlining eshigi bor holda, devordan azoblanib yuqoridan tushmakdur!»; «Tilingiz bormi?-deyilganda: uni cho‘ntakdan izlab azoblanishdur!». Ona tilimiz, uning qadr-qimmati va hurmat e’zozi istiqlol tufayli amalga oshdi. Madomiki, shunday ekan Suboh singari ajdodlarimizning milliy tilimiz bilan bog‘liq orzu-umidlari ro‘yobga chiqdi, deyishga bugungi avlod haqlidir.

Mahmud Suboh yaxshigina ijodkor ham edi. U Buxoroda yashab, ishlagan yillarida «Abuvarajaxon», «Hikoyalar», «Kichik hikoyalar» nomli kitoblarini chop ettirdi. Ushbu asarlarida Buxoroning o‘tmishi va XX asr 20-yillari bilan bog‘liq voqealar badiiy fondda talqin qilinadi. U ilmiy-publisistik, badiiy asarlar yozish bilan birga rus, turk, arab, fors tilida yozilgan asarlarni ham ona tilimizda tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga tuhfa qilgandi.

O‘sha davr matbuot organlaridagi xabarlardan birida M.Suboh tarjima qilgan asarlar ro‘yxati keltirilgandi. Ro‘yxatni o‘z holicha keltirishni lozim topdik:

1. «Qozi bola» (3 pardalik bolalar uchun teatr o‘yini, narxi-4 tanga).
2. «Man hozir o‘qiyman» (teatr kitobi-3 tanga)
3. «Sir» («YOshrunchi») (teatr kitobi-2 tanga)

M.Subohning Buxorodagi faoliyati haqida birmuncha ma’lumot berishdi xolos. M.Suboh Buxoro hukumati tugatilganidan so‘ng, avval Samarqandda, keyin esa Toshkentda ishlab «Bilim o‘chog‘i», «Maorif va o‘qituvchi» kabi jurnallarda o‘nlab maqola, badilar e’lon qilgan. M.Suboh (maqolalar oxirida o‘z ism-

sharifini ushbu tarzda qo‘yardi) qanday oilada tavallud topgan? Qaerda tahlil olib, Buxoroga kelguncha nima ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan? XX asr 20-30 yillarida qaysi vazifalarda ishlagan va qanday asarlar yaratgan? kabi ko‘plab savollar o‘quvchilarimizni qiziqtirishi tabiiydir. Ism-shariflari tarix qatlarida qolib ketgan millatparvar vatandoshlarimizning nomlari birin-ketin tiklanmoqda. M.Suboh (Subay) ma’rifiy va madaniy me’rosi kelgusida alohida yirikroq tadqiqotga asos bo‘lar, o‘sha paytda esa, yuqoridaqgi savollar echimidan xabardor bo‘larmiz. Nima bo‘lsa ham, M.Subohning XX asr ma’rifatparvarlari qatorida haqli suratda munosib o‘rni borligiga, 1920-1924 yillarda Buxoroda samarali faoliyat olib borganligiga ishonchimiz komil.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘rganilgan masala yuzasidan keltirilgan, foydalanilgan faktik materiallar, tarixiy manbalar, qolaversa, ilmiy risolalar va maqolalar asosida matbuotning tarixi, bugungi kundagi o‘mi va mustaqillikni mustahkamlashda roli xususida quyidagi xulosalarga kelindi:

1920 yil 2 sentyabrda amirlik tuzumining ag‘darilishi va BXSR hukumatining tuzilishi bilan muntazam chiqib turadigan matbuotga asos solindi. Bu esa XX asr boshlarida Buxoro matbuotchiligi tarixi o‘ziga xos yo‘ldan borganligini va taraqqiyatparvarlarning muntazam mahalliy matbuotga asos solishdek orzu-istiklarini amalda tasdig‘i bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari BXSR hukumati o‘rnatilganidan so‘ng o‘zbek tilida chop etilgan matbuot nashrlari bo‘lib, ular har oyda kamida 4-6 marta chop etilgan. Gazetalarning nashr soni yildan-yilga o‘sib borgan. “Buxoro axbori”da Said Ahroriy, Abdulxamid Cholpon, Ziyo Usmoniy, Ostonkul Abdulqiyomov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov bosh muharrir bo‘lib faoliyat yuritgan bo‘lsalar, “Ozod Buxoro” gazetasida esa Qosim Sorokin, Abbas Aliev kabi mas’ul muharrirlar hamda ikkala gazetada 90 nafardan ortiq muxbirlar va mualliflar o‘z maqolalari bilan qatnashganlar. Gazetalarning sifati, soni, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ta’sirchan kuchi, o‘z davrida kechgan jarayonlarni xolisona bayon qilinishi, ayniqsa, Said Ahroriy, Abdulxamid Cholpon, Qori Yo‘ldosh Po‘latovlarning “Buxoro axbori”da muharrirlik qilgan yillarida yuksalgan.

BXSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining matbuot organi bo‘lgan “Buxoro axbori” gazetasi amirlik tuzumi ag‘darilganidan bir hafta o‘tib, 1920 yil 9 sentyabrdan boshlab chop etildi. Ushbu gazeta BXSRda yuz bergan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy hayotni o‘zida ifodalagan maqola va xabarlar e’lon qilib bordi. Gazeta o‘zining shakli, mohiyati, mazmuni, uni chop etishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalariga ko‘ra zaruriy jangovor matbuot darajasiga

ko‘tarila oldi. “Buxoro axbori” gazetasi 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil 16 oktyabrgacha, ya’ni 3 yil 1 oy davomida chop etilib, uning jami 214 ta soni nashr yuzini ko‘rdi. Gazeta chop etilgan 3 yildan ortiq davrda aholi turmushining turli jabhalarida ro‘y berib turgan voqealarga hozirjavoblik bilan o‘z munosabatini bildirdi, jamiyatdagi illatlarni ochib tashlaydigan tanqid ruhida yozilgan maqolalarni chop etilishi bilan o‘ziga xos o‘rin tutdi.

Ushbu gazetalar, ayniqsa, Said Ahroriy, Abdulhamid CHo‘lpon, Qori Yo‘ldosh Po‘latov muharrirlik qilgan davrlarda ta’sirchan kuchga va ommaviy matbuot nashrlarga aylangan. YUqorida ismi-shariflari zikr qilingan tarixiy shaxslarning matbuotchilik sohasidagi faoliyati ibratlidir. Qolaversa, Said Ahroriy va Mahmud Suboh kabi ma’rifatparparlarning matbuotga jiddiy maqolalar bilan qatnashishlari Buxoro madaniyati va ijtimoiy hayotini yanada jonlanishiga hissa bo‘lib qo‘shilganligini xulosalash o‘rinlidir.

SHuningdek, Said Axroriy va Mahmud Subohlarning ta’lim va tarbiya, maorif, madaniyat kabi masalalariga oid maqolalarini o‘qib tahlil qilar ekanmiz, tadqiqotchi sifatida quyidagi takliflar beramiz:

Birinchidan, milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz o‘zining buloq ko‘zini ochayotgan bugungi kunda ularning ma’naviy-siyosiy qarashlari zamonamiz ruxi bilan hamohangligi talabidan kelib chiqib, chuqr va mukammal tadqiq qilinsa, foydadan holi bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, o‘rtta umumta’lim maktablaridagi o‘quv xonasi, o‘quv zallarini jihozlashda, shiorlar bilan boyitishda Said Axroriyning: «Bilim kerak, lekin sog‘lik zarurdir!», «Ma’naviy tarbiyadan maqsad-insonlikka, insof va haqqoniyatga mos bir ravishda harakat qilishlarini ta’min etuvchi pokiza tuyg‘ularni ularning yuraklarida o‘rnatishmoqdur», «Tarbiya degan narsa eng ziyoda, qiyin bir hunardur», «Harakati va axloki buzuq bo‘lgan bir kishini murabbiy deb saylamoq jinoyatdур», M.Subohning: «Hovlining eshigi bor holda, devordan azoblanib yuqoridan tushmakdur!»; «Tilingiz bormi?-deyilganda: uni cho‘ntakdan izlab azoblanishdur!» kabi fikrlaridan foydalanish mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari, xullas barcha pedagoglar o‘zlarining kasbiy mahoratlarini oshirishda, tarbiya uslublarini takomillashtirishda ma’rifatparvar vatandoshlarimizning asarlarini o‘qib o‘rgansalar umum ishimizda samaradorlik yanada oshgan bo‘lardi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchi va pedogog xodimlarning malakasini takomillashtirish dargohlarida «XIX asr oxiri XX asr dastlabki o‘n yilliklarida Turkiston ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari va hozirgi zamon uchun ahamiyati» yo‘nalishida maxsus o‘quv soatlari tashkil qilish (4-6 soat) milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish borasidagi vazifalarimizni bir qadar olg‘a siljitishiga aminmiz.

Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil va xulosalarga tayanib quyidagilarni tavsiya qilaman:

1. Turkiston va Buxoro matbuotchilagini mazmun va mohiyatan farqli, o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi tadqiqotlar amalga oshirilishi kerak.
2. BXSR matbuot materiallaridan foydalanib, **Said Axroriy va Mahmud Subohlar ijodining** bibliografiyasini tuzish maqsadga muvofiq bo‘lardi.
3. Mamlakatimizda yuz berayotgan istiqloliy o‘zgarishlarga barcha vaqtli matbuot organlarida bir xilda munosabatda bo‘linmaganligini alohida qayd etib, keyingi tadqiqot ishlarida inobatga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -592 b.
2. Mirziyoev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: "Sharq", 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: "O'zbekiston", 1997.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2009.

Maxsus adabiyotlar:

7. Buxoro tarixi masalalari /Maqolalar to'plami. -Buxoro: Buxoro, 1996.-203b.
8. Buxoro: tarix sahifalari /Maqolalar to'plami. Buxoro: Buxoro, 1999.-184b.
9. Do'stqoraev B. Cho'lpon: gazeta - ettinchi davlat //O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004 yil 22 oktyabr.
10. Do'stqoraev B. Buxoroda milliy matbuotning yuzaga kelishi //Ma'rifat. 2008 yil 21, 25, 28 iyun, 2 iyul.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) /Davriy to'plam. -№ 1. - T.: Universitet, 1999. -218 b.
12. Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar /Tanlangan asarlar. To'plovchi Turdiev SH. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. -B. 14-115.
13. Mahmud Said Ahroriy. Tanlangan asarlar /To'plib nashrga tayyorlovchi Xolida Ahrorova. -T.: Ma'naviyat, 2001. -101 b.

14. Naimov N. Men yashashni istayman (roman-xronika). -Buxoro, “Buxoro” nashriyoti, 1994. -326 b.
15. Rajabov Q. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari: davlatchilikning demokratik shakli /O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T.: SHarq, 2001. - B.185-202.
16. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. -T.: Ma’naviyat, 2002. -144 b.
17. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar) /O‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 2002. -168 b.
18. Rajabov Q. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi /O‘zME. 2-jild. -T., 2001. - B.299-302.
19. Rashidov U. Buxoro Xalq Respublikasi. -Buxoro: Buxoro, 2003. -99 b.
20. Rashidov U., Rashidova L. Buxoro amirligida jadidchilik harakati va uning shakllanish omillari /Iz istorii kulturnogo naslediya Buxary. (10 выпуск). -Buxara: Buxara, 2006. -B.81-84.
21. Rashidov U. Buxoro bosqini va sovet tuzumiga qarshi kurash. -Buxoro, 2008. - 64 b.
22. Rahmonov K. “Buxoro axbori” gazetasi - Buxoro Respublikasi matbuot organi //Jamiyat va boshqaruv. -T., 2004. № 2. -B.44-46.
23. Rahmonov K. Sog‘likni saqlash muammolarining davriy matbuotdagi talqini //Jamiyat va boshqaruv. -T., 2006. (maxsus son), -B.115-117.
24. Rahmonov K. Fayzulla Xo‘jaevning Berlindan Buxoroga maktubi //Buxoro mavjlar. -Buxoro, 2008. № 1. -B.34-35.
25. Rahmonov K., Hayitov J. Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan (XX asrning birinchi choragi) //Bux DU ilmiy axborotlari. -Buxoro. 2008. № 3. -B.24-28.
26. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917) /Tuzuvchi Abduazizova N. -T.: Akademiya, 2000. -238 b.
27. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida /Ilmiy muharrir Jo‘raev M. -T.: SHarq, 2000.-688b.

28. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 y). 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. /Mas’ul muharrir Alimova D. -T.: SHarq, 2000. -416 b.
- 29.Qosimov F., Rashidov U. Buxoro amirligining tugatilishi /Buxoro tarixi masalalari. -Buxoro, 1996.-B.69-93.
30. Qosimov F. Buxoro Respublikasi tarixshunosligi. -Buxoro, 1997. -70b.
31. Qosimov F. Buxoroda milliy demokratik harakatning o‘ziga xos xususiyatlari /Markaziy Osiyo XX asr boshlarida: islohotlar, yangilanish va taraqqiyot uchun kurash. -T. , 2001. -B.115-118.
32. Hayitov SH. Birinchi muharrir //Buxoronomma. 2003 yil 10 sentyabr.
33. Hayitov SH., Rahmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari (1920-1924 yillar). -T.: Fan, 2004. -101b.
34. Hayitov SH., Badriddinov S., Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot. -Buxoro: Buxoro, 2005. -154 b.
35. Hayitov SH. O‘zbek muhajirligi tarixi (1917-1991 yillar). -T.: “Abu matbuot-konsalt” MCHJ, 2008. -207 b.
36. Holboev S. Buxoro amirligining oltin xazinasi. -T.: Fan, 2008. -180 b.